

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Qo`lyozma huquqida
UDK 811.512.133

Muminova Marxabo Ilxom qizi

O`zbekiston Respublikasining til siyosati
(sotsiolingvistik tahlil)

5A120102 – Lingvistika (o`zbek tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

N. Uluqov,
filologiya fanlari doktori

Namangan – 2016

M u n d a r i j a

Kirish.....	3
1-bob. O`zbek tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar.....	9
1.1. O`zbek tili va adabiyoti taraqqiyotida yangi davr boshlandi.....	9
1.2. Sotsiolingvistika va uning dolzarb muammolari.....	15
1-bob bo`yicha xulosalar.....	26
2-bob. O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi va til siyosati.....	27
2.1. O`zbekistonda sho`rolar davridagi til siyosati.....	27
2.2. O`zbekiston Respublikasining mustaqillik davridagi til siyosati va uning huquqiy asoslari hamda ijtimoiy-siyosiy ahamiyati.....	31
2.3. O`zbekiston respublikasining til siyosatida boshqa millat vakillari va ularning tillariga e`tibor masalasi	36
2-bob bo`yicha xulosalar.....	48
3-bob. O`zbekiston Respublikasining til siyosati va o`zbek tili taraqqiyoti.....	49
3.1. O`zbek tili taraqqiyotining yangi davri va ijtimoiy muammolar	49
3.2. O`zbek tilshunosligining mustaqillik yillaridagi rivoji.....	67
3-bob bo`yicha xulosalar.....	76
Umumiy xulosalar.....	77
Foydalanilgan adabiyotlar	79

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Har bir xalqning xalqligini, mavjudligini ta'minlovchi va namoyon etuvchi ma'naviy-ma'rifiy xazina tildir. Demak, ona tili – millatning o'zligini ko'rsatuvchi eng muhim, eng ulug', eng muqaddas vosita.

Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarlarida ta'kidlanganidek, **“Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”**.¹ Ona tili elning taqdiri, kelajagini ham belgilaydigan eng muhim omildir.

Mashhur tilshunos Nizomiddin Mahmudov ta'biri bilan aytganda, til muqaddas va muhtasham qudrat, sir-u sinoatli, noz-u nazokatli navo, millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat boy beriladi. Demak, milliy til – ona tili inson qavmini millat sifatida shakllanishini va bardavomligini ta'minlovchi mo'jizadir. Ona tili avlodlarni avlodlarga, davrlarni davrlarga bog'lovchi tilsimdir. Ona tili millatning birligi va borligini bosh belgisidir. Qadimiy, ko'hna va navqiron o'zbek tili – o'zbek xalqining milliy tili, ona tilisidir. Millat va jamiyat tarixiy takomilida ona tilining alohida o'rne bor. Demak, ona tili millatni mavjudligining bosh asosidir.

Haqiqatdan ham insonning ma'naviy-ma'rifiy takomilida va ijtimoiy hayotida ona tilining o'rne beqiyos. Inson ona tili vositasida dunyoni, borliqni, o'zini anglaydi. Ona tilisi mavjud insongina inson. Ona tili muqaddas va mo'tabar ulug' ne'mat, Alloh bergan mo'jiza, insonning inson sifatida shakllantiruvchi, ong va tafakkurining takomilida muhim o'rin tutuvchi tilsim, insonlarni o'zaro bog'lovchi robitadir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, birinchi navbatda tilga bo'lgan e'tibor kuchaydi, tilni o'rganish va uni hayotga tadbiq etishda ulkan imkoniyatlar yuzaga keldi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi” Qonunning

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 83.

qabul qilinishi o'zbek tilining taraqqiyotida yangi bir o'zgarishlar davrini boshlab berdi. O'zbek tilining – davlat tili ekanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida belgilab qo'yilgan. Bu ayni paytda o'zbek tilining yanada rivojlanishi, keng o'rganilishi, targ'ib qilinishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbek tilining davlat tili sifatida yashayotganligi bugungi milliy istiqlolimizning muhim belgilaridan biridir. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamalakatimizda yashovchi boshqa millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashga monelik qilmasligi, fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egaligi Konstitutsiya va “Davlat tili haqida”gi qonunimizda huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekistonda turli millat vakillarining til tengligi to'la qonun asosida ta'minlangandir.¹ Ana shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining til siyosatini sotsiolingvistik tadqiq etish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Shu jihatlari bilan magistirlilik dissertatsiyasi dolzarblik kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasining til siyosati va uning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati masalalari Ernest Begmatov, Miraziz Mirtojiyev, Abdulhamid Nurmonov, Abduzuhur Abduazizov, Nizomiddin Mahmudov, Jo'livoy Eltazarov, Sultonmurod Olim, Nosirjon Uluqov kabi olimlarning ilmiy maqolalarida, darslik va qo'llanmalarda yoritilgan bo'lsa-da, maxsus sotsiolingvistik aspektda o'rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zbekiston Respublikasining til siyosatini sotsiolingvistik aspektda tadqiq etish tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsad va mohiyatidan kelib chiqib ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. O'zbekiston Respublikasining til siyosatini sotsial, etnik, etnografik omillarga bog'liq tarzda sotsiolingvistik aspektda tadqiq etish.

¹ Асқаров З. Ўзбек миллий давлатчилиги ва баъзи ҳуқуқий – назарий масалалари хусусида // Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – № 3. – Б.70.

2. O`zbekiston Respublikasining til siyosatini boshqa mamlakatlar til siyosati bilan farqli va mushtarak jihatlarini belgilash.

3. Respublikaning sobiq tuzum va istiqlol yillaridagi til siyosatini qiyoslash.

4. Mustaqil O`zbekiston Respublikasining til siyosatining yaratilish va tuzilish tamoyillarini yoritish.

5. O`zbekiston Respublikasining til to`g`risidagi qonunlarini rivojlanib, takomillashib borishi masalalarini yoritish.

6. Istiqlol yillaridagi davlatimiz til siyosatining o`zbek tili taraqqiyotidagi o`rni, mohiyatini, ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish.

Ishning obyekti va materiallari. O`zbekiston Respublikasining "Davlat tili to`g`risida"gi Qonuni va unga yozilgan sharhlar, tahliliy maqolalar, materiallar ishning obyekti va tadqiq materialidir.

Tadqiqotning nazariy asosi va metodlari. Mavzuga oid nazariy masalalarni yoritishda jahon tilshunosligi, jumladan, turkiy tillar, o`zbek tilshunosligidagi sotsiolingvistikaga doir fundamental tadqiqotlarga, ulardagi ilmiy-nazariy qarash va usullarga asoslaniladi.

Tadqitotda, asosan, lisoniy tavsiflash, lug`aviy-ma`noviy tahlil, qiyosiy tahlil, sotsiolingvistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ish quyidagi jihatlar bilan ilmiy yangilik kasb etadi:

– O`zbekiston Respublikasining til siyosati sotsial, etnik, etnografik omillarga bog`liq tarzda sotsiolingvistik aspektda tadqiq etildi;

– O`zbekiston Respublikasining til siyosati boshqa mamlakatlar til siyosati bilan qiyoslandi;

– O`zbekiston Respublikasining til siyosatining yaratilish va tuzilish tamoyillari yoritildi;

– mamlakatda til siyosatining rivojlanib, takomillashib borishi masalalari yoritildi;

– yangi til siyosatining o`zbek tili taraqqiyotidagi o`rni, mohiyati ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilindi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot materiallaridan O'zbekiston Respublikasining til siyosatini va unga doir ilmiy, amaliy masalalarni o'rganishda, oliy o'quv yurtlarida "Tilshunoslik nazariyasi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Sotsiolingvistika" fanlarida til siyosati bilan bog'liq masalalarni o'qitishda hamda maxsus kurslar o'tishda, akademik litsey va umumiy o'rta ta'lim maktablarida til taraqqiyotiga doir mavzularni o'rgatishda foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Tadqiqot bo'yicha ilmiy jurnal va to'plamlarda 5 ta maqola e'lon qilingan:

1. Давлат тили ва унинг ҳуқуқий асослари // Тил ва адабиёт масалалари: Ўзбекистон халқ шоираси Зулфия таваллудининг 100 йиллигига бағишланган республика олий ўқув юртлари профессор-ўқитувчиларининг илмий мақолалари тўплами. – Наманган, 2015. – № 2. – Б. 117-120.

2. // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, филология фанлари доктори, профессор Абдулҳамид Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказиладиган Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2015. – Б. 76-78.

3. О'zbek tili lug'at tarkibining takomillashuvi masalalari // Илм уммонидан қатралар: Ёш тадқиқотчилар, магистрантлар ва иқтидорли талабаларининг илмий мақолалари тўплами. – Наманган, – 2016. – № 6. – Б. 18-21.

4. О'zbekiston Respublikasi til siyosatining sotsiolingvistik takomillashuvi va rivoji // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, филология фанлари доктори, профессор Абдулҳамид Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказиладиган Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2016. – Б. 76-78.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya hajman 82 bet bo`lib, kirish, “O`zbek tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar”, “O`zbekiston Respublikasi-ning mustaqilligi va til siyosati”, “O`zbekiston Respublikasining til siyosati va o`zbek tili taraqqiyoti” kabi uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

1-bob. O'zbek tilshunosligida sotsiolingvistik tadqiqotlar

1.1. O'zbek tili va adabiyoti taraqqiyotida yangi davr boshlandi

Til, xususan, ona tili ham bir vatan. Tilda millat yashaydi. Millatning tarixi, taraqqiyoti, milliyligi va kelajagi shu til bilan bog'liq.

Har bir xalqning xalqligini, mavjudligini ta'minlovchi va namoyon etuvchi ma'naviy-ma'rifiy xazina ham tildir. Milliy til – ona tili inson qavmini millat sifatida shakllanishini va bardavomligini ta'minlovchi mo'jizadir. Demak, til – millatning o'zligini ko'rsatuvchi eng muqaddas vosita. Ona tili – muqaddas va mo'tabar ulug' ne'mat, Alloh bergan mo'jiza, insonning inson sifatida shakllantiruvchi, ong va tafakkurining takomilida muhim o'rin tutuvchi tilsim, insonlarni o'zaro bog'lovchi eng muhim, eng ulug' robitadir.

Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” nomli asarlarida ta'kidlaganlaridek, “Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”.¹ Ona tili elning taqdiri, kelajagini ham belgilaydigan eng muhim omildir.

Haqiqatdan, insonning ma'naviy-ma'rifiy takomilida va ijtimoiy hayotida ona tilining o'rni beqiyos. Til – ma'naviyat kaliti, o'zlikni, dunyoni va borliqni anglash vositasi. Bilish va o'rganish ham til vositasida amalga oshadi. Inson ona tili vositasida dunyoni, borliqni, o'zini anglaydi. Ona tilisi mavjud insongina inson.

Shu bois ham O'zbekiston hukumati tomonidan til siyosatiga istiqlol siyosatining uzviy bir qismi sifatida qaraldi. Mustaqillikning ilk samarasi o'laroq bundan 27 yil muqaddam – 1989-yil 21-oktyabrda O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” gi Qonuni qabul qilindi. O'zbek tili davlat tili maqomini oldi.

Prezident Islom Karimov **“O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”** asarida til haqida shunday yozadi:

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 87.

“Til haqidagi ba’zi mulohazalar bilan o’rtoqlashmoqchiman. Birinchi navbatda shuni aytmoqchimanki, o’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hech kimda hech qanday shubha tug’dirmasa kerak. Bu allaqachon yuz berishi lozim bo’lgan hodisa ediki, aholimiz ko’pchiligining qonuniy talabi ham shunday edi.

Binobarin, o’z ona tilini bilmagan odam o’zining shajarasini, o’zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo’q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to’g’ri aytishadi.”¹

Mustaqillik yillarida ma’naviyatning ajralmas va uzviy bir qirrasini bo’lgan o’zbek tili taraqqiyoti hamda ravnaqiga ham alohida e’tibor berildi. Charog’on kunduz-la qovushgan o’zbek tili va tilshunosligining qaddi ham, qadri ham tamoman tiklandi. Bu muborak holat mumkinotining, nafaqat mumkinoti, balki muntazam ta’minotining tashabbuskori va posboni ham Yurtboshimizdir.²

1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o’zbek tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi. Natijada o’zbek tili mustaqil O’zbekistonimizning bayrog’i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

O’tgan yillar davomida tilimiz taraqqiyoti va ravnaqi borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy doirada o’zbek tilining mavqei ortdi, tiklandi, qo’llanish doirasi kengaydi. Ana shunday xayrli va ezgu ishlarning davomi sifatida 2016-yil 14-mayda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilishi haqidagi Prezidentimizning farmonlari chiqdi.³

“Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o’zligining, madaniy-ma’rifiy olami, milliy g’oyasining asosi hisoblanadi. Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig’ini ko’rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo’qotmak – millatning ruhini

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б. 69.

² Махмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №5. – Б.11.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида // Қишлоқ ҳаёти, 2016, 14 май, 1-2-бетлар.

yo`qotmakdur“ degan hikmatli so`zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi”, – deyiladi farmonida.

“Shuning uchun ham qachonki bosqinchi va istilochi kuchlar el-yurtimizni o`ziga qaram qilmoqchi bo`lsa, avvalo, uni o`z tili va dinidan, tarixi va madaniyatidan, milliy g`ururidan judo etishga uringan. O`lkamiz qaramlik changaliga tushib qolgan istibdod davrlarida ona tilimizning rivojlanish imkoniyatlari cheklab qo`yilgani hech kimga sir emas”, – deya ta`kidlanadi hujjatda.

“O`zbek tili qadimiy va boy tarixga ega bo`lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, sug`diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o`z ta`sirini ko`rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi. O`zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til katta hissa qo`shganini alohida ta`kidlash tabiiydir.

Shu borada Mahmud Koshg`ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilm-u fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o`rin egallaganini qayd etish joiz.

O`zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko`tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o`rin olgan o`lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Furqat kabi o`nlab mumtoz adib va allomalarimizning ijodida ona tilimizning lug`at boyligi, badiiy imkoniyatlari, uning go`zalligi va nafosati yanada yorqin namoyon bo`lganini ta`kidlash lozim”, – deyiladi Prezident farmonida.

“Mustamlaka tuzumining tazyiqlariga qaramasdan, o`z hayotini xalqimizning ma`naviy kamolotiga, ona tilimizning ravnaq topishiga bag`ishlagan Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho`lpon, Abdulla Qodiriy kabi ulug` ma`rifatparvarlarning ulkan xizmatlarini,

bu yo`lda haqiqiy vatanparvar, yurtparvar, millatparvar sifatida iz qoldirgan ziyoli insonlarning nomlarini el-yurtimiz doimo hurmat bilan eslaydi.

Biz ajdodlardan avlodlarga o`tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o`zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e`tiborimizdan chetda qolmasligi zarur.

Shuningdek, 1990-yili Vazirlar Mahkamasining “Davlat tili to`g`risida”gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi to`g`risida”gi qarori, 1993-yilda “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida”gi qonun, 1995-yili “Davlat tili haqida”gi qonunning yangi tahriri, 1996-yili ushbu qonunni amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturiga tegishli o`zgartirishlar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasining qarori va shu kabi boshqa hujjatlar qabul qilingani bu borada muhim ahamiyat kasb etdi”, – qayd etiladi farmonida.

“Ushbu sohada yaratilgan normativ-huquqiy baza o`zbek tili bilan birga mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning o`z ona tilini rivojlantirish va uni erkin qo`llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanishni kafolatladi kelayotgani alohida e`tiborga sazovordir. Ayni shu asnoda O`zbekistonda milliy tillarni rivojlantirish uchun keng sharoit yaratilgani, bugungi kunda yurtimizda ta`lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari yetti tilda faoliyat olib borayotgani jamiyatimiz hayotida millatlararo ahillik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim omil bo`lmoqda.

Keyingi yillarda O`zbekistonda mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada chuqur integratsiyalashuvini ta`minlash maqsadida chet tillarni, xususan, ingliz tilini o`qitishning kompleks tizimi yaratilib, amalda keng joriy etilmoqda. Ana shunday ishlar qatorida o`zbek tili va adabiyotining xalqimiz, jamiyatimizning ma`naviy rivojida, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida tutgan o`rni va roli bilan bog`liq dolzarb mavzularda muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, ko`plab lug`at va qomuslar, risola va darsliklar nashr etilmoqda. O`zbek tili va adabiyoti bo`yicha mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, mazkur yo`nalishda faoliyat olib borayotgan xodimlarni qayta tayyorlash

va malakasini oshirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda", – deyiladi farmon-da.

Ayni vaqtda bu sohada mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha hali ko'p ishlarni amalga oshirish darkorligi, ta'kidlanadi davlat rahbari farmonida: "Eng avvalo, ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda".

"Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o'ta muhim tarmoqlarda o'zbek tili o'zining haqiqiy o'rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug'atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo'lib turganini qayd etish lozim", – ta'kidlanadi farmonida.

Tez o'zgarayotgan globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning hamda ushbu soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashning sifatini tubdan oshirish maqsadida Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining o'zbek filologiyasi va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining o'zbek tili va adabiyoti fakultetlari hamda Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti negizida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilishi belgilandi.

Universitet tarkibida uchta fakultet: o'zbek filologiyasi, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish, o'zbek-ingliz tarjima fakultetlari, shuningdek, O'zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi universitet tarkibiga o'tkazilib, uning negizida O'zbek tili va adabiyoti muzeyi tashkil etiladi.

Farmonda belgilab qo'yilganki, universitet o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha filolog mutaxassislar, ilmiy-pedagog kadrlar, yuqori malakali tarjimonlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, soha xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ayni shu yo'nalishlarda ilmiy va o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonini butun o'zbek xalqiga mamnuniyat bilan qarshi oldi. Farmon o'zbek xalqining, qolaversa, filolog olimlar va talabalarning yuragidagi ezgu orzuniyatlarining bir ifodasi bo'ldi. Albatta, mazkur Farmon kelgusida ona tilimiz va adabiyotimiz – o'zbek tili va adabiyotining taraqqiyotida yana bir yangi yuksalish davrini boshlab beradi. O'zbek tilining dunyo lisoniy olamida munosib o'rin olishiga asos bo'ladi. Inshoolloh, kelajagi buyuk yurtning tili va adabiyoti ham ulug' bo'ladi.¹

Endilikda dunyodagi ko'p rivojlangan davlatlarning ilmiy markazlarida o'zbek tili va adabiyoti alohida e'tibor bilan o'rganilsa ajab emas, chunki tashkil etilayotgan universitetda til va adabiyotimiz yanada chuqurroq tadqiq etiladi, bu ilm maskanida tayyorlanadigan yetuk, kelajagi porloq mutaxassislar tilimiz va adabiyotimizni jahonga tanitadi.

¹ Улуков Н. Ўзбек тили тараққиётида янги давр // Наманган ҳақиқати, 2016, 21 май, 1-б.

1.2. Sotsiolingvistika va uning dolzarb muammolari

Til siyosati davlatning ichki siyosati, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy jarayonlari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, shu ko'rinishlarga teskari ta'sir etish qudratiga ham egadir. Til siyosatining asosiy mazmuni – davlat tili (yoki tillari)ni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Odamlarning til va jamiyatdagi aloqadorligi, jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar hamda shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar uzoq tarixga ega. “Til doimo jamiyatda rivojlanadi”.¹ Bu fikr bilan tilning jamiyat bilan bog'liq tabiatini ham ochib beradi.

Sotsiolingvistika (lot. *soci* (*etas*) – jamiyat + lingvistika) tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy taraqqiyoti sharoitlarini o'rganuvchi sohasi.

Sotsiolingvistikaning rivojlanishida A.Meyerning ishlari ham salomoqli o'rin tutadi. Uning “So'z semantikasining o'zgarishi” nomli asarida jamiyat va til o'rtasidagi bog'lanishlar mavjudligi yorqin ko'rsatib beriladi. Uning fikricha: “Til insonlar uchun jamiyatning asosiy mezon bo'lib, u jamiyatda eng kerakli (muomila) qurolidir” .

Ferdinand de Sossyur (1857-1913) ham shunday qarashlarga ega bo'lgan. Uning fikricha, til jamiyatdagi bir tizim bo'lib, u psixologik va fiziologik jihatdan fundamental asos hisoblanadi.

Til kishilik jamiyatining o'ziga xos bir hodisasidir. Odamlar til orqali axborot oladi, munosabat bildiradi. Shuning uchun, til paydo bo'lgandan boshlab, taraqqiyot jarayonida jamiyatda tilni har tomonlama o'rganishga ehtiyoj ortib boradi. Sotsial tilshunoslik til va jamiyat munosabatlarini tadqiq etuvchi fan. Uning fan sifatidagi vazifasi jamiyatning til bilan bog'liq barcha qirralarini ilmiy tadqiq etishdan iborat. Shuningdek, sotsiolingvistika sotsiologiya, antropologiya, etnologiya, psixologiya, geografiya, tarix kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, mazkur fan jamiyatning o'zgarib borishi natijasida tilda

¹ Энциклопедический словарь юного филолога. – Москва: Педагогика, 1984. – С. 304 – 305.

kechayotgan o'zgarishlarni ham tadqiq etadi. Shu nuqtai nazardan sotsial tilshunoslik jamiyat va til o'rtasidagi umumiy o'zgarishlarni o'rganuvchi fandır.

“Til nima?” degan masala tilshunos va faylasuflarning ko'p yillik muammosi bo'lib qolmoqda. Haqiqatan ham tilning tabiati bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Biz odatda tilga nisbatan: “Til – bu jamiyatning ma'lum a'zolari tomonidan ishlatiladigan vosita” kabi iborani ishlatamiz. Umuman olganda, bu oddiy tushuncha, ammo u ham juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi. Chunki jamiyat har xil, undagi til ham turli-tuman. Ba'zi odamlar bir nechta tillarda so'zlasha oladilar. Shu bois, filologlar joyga qarab tilga ta'rif bera olishadi. Ko'p hollarda, ular “muloqot tili” lingvistik guruh tushunchasini qo'llashni ma'qul ko'rishadi. Bu kabi tushunchalar ushbu terminning kaliti bo'lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, ushbu tushuncha yoki termin muammosiz emas. Masalan, “Muloqot tili” nimaga asoslanib bo'linadi? Har bir tilning kaliti qanday tizimga ega? Filologlar tilga qanday munosabatda bo'lganligiga qaramay, ular aytayotgan “til” odamlar tassavuridagi “til” tushunchasidan keskin farq qiladi.

Shevalar masalasi ham tilshunoslikning bir tarmog'i hisoblanib, hozirgi kunda tilshunoslar shevani ikki turga ajratishadi: mintaqaviy til shevasi; jamiyat til shevasi. Tilshunoslikda shevaning bir tarmog'i mintaqaviy sheva deb ataladi.

Aslida, odamlar ma'lum bir tildagi hodisalarning xarakteri va farqini boshqa bir til hodisasi sifatida farqlaganda, nafaqat tildagi o'ziga xosligini balki, undan tashqari, jamiyatdagi omillarni ham inobatga olishi zarur.

Keyinchalik ikki me'yori paydo bo'ldi: til me'yori, jamiyat me'yori. Juda ko'p holatlarda, til me'yori bilan jamiyat me'yori birlashadi. Lekin ba'zida til va jamiyatning rivojlanishi sabab, tilning farqli jihatlari ila jamiyatning farqli tomoni muammo ostida qoladi. Masalan, millat va til umuman har xil tushunchalardir. Ba'zi bir olimlarning fikricha, til va shevaning farqi quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatadi:

- 1) tilning chegaralari shevadan katta;
- 2) tilning obro'si shevadan balandroq;
- 3) eng katta farqi tilda yozuvning mavjudligi.

Robert Genri Robinsning ta'kidlashicha, jamiyatning aloqa vositasini "til" va "sheva"ga ajralishi, ko'pincha odamlar madaniyatiga bog'liqdir. Ushbu ikki tushuncha ham til jamiyat madaniyati tarixining mahsuli ekanligini o'zida aks ettiradi.

Tilshunoslar nuqtai nazaricha, til va sheva orasida katta farq yo'q emish. Boshqacha qilib aytganda, "ma'lum til" tushunchasi jamiyat tilshunoslari orasida ishlatilmaydi. Jamiyat tilshunoslari ham, asosan, sheva masalasiga kengroq e'tibor qaratadi. Ular ham shevashunos olimlar tomonidan taqdim etilgan materiallardan foydalanadi, biroq ularning tadqiqot manbaini ko'proq jamiyat masalalarini o'rganishga qaratiladi.


Tilda jamiyatdagi tabaqalanishdan, jinsidan, yoshidan va kasbi-koridan qat'iy nazar ma'lum bir sheva paydo bo'ladi. Ushbu omillar sabab turli mintaqalardagi bir jamiyat tilidagi o'xshash hodisa ro'y beradi.

Davlatdagi hamma muloqot turlariga xizmat qiluvchi funksional taqsimlangan tillar tizimi va ularni faoliyat shakllari o'ziga xos so'zlari va ifodalari bilan umumiy farq qiladigan sheva adabiy til vaziyati, deb ataladi.¹

Til vaziyati jamiyatining til hayoti bilan bog'liq xususiyatlarini, xususan, tillarning shakli va faoliyat shartlarini, ularning ijtimoiy ishlatish sohalarini tartibga soladi. Ayrim hollarda u tillarni har tomonlama rivojlanishiga ko'maklashadi. Boshqa hollarda aksincha til siyosati, tillarning rivojlanishini sun'iy to'xtatadi, ularni normal faoliyatiga to'sqinlik qiladi, bu esa madaniy turg'unlakka, millatlararo nizolarga, hukmron millat tili tomonidan diskriminatsiya ostidagi millat tillarini zo'rlik bilan siqib chiqarishga olib keladi. Shuning uchun til vaziyati tilshunoslarning chuqur tahlil obyektiga aylangan.

Til vaziyati – sotsiolingvistikaning asosiy tushuncha va tadqiqot predmetlaridan biri hisoblanadi. Zero, keyingi paytlarda globallashuv jarayonlarining kuchayib borayotganligi bois til vaziyati faol ta'sirini o'tkazuvchi asosiy omilga aylanmoqda.

¹ Сердюченко Г.П. К вопросу о квалификации народов и языков Китая // Советское востоковедение, 1957. – № 4; Зарубежный Восток: языковая ситуация и языковая политика. – Москва: Справочник, 1986. – С.5.



1-chizma. Tilning ijtimoiy mavqeiga ko`ra turalari.

Til vaziyati bu mavjudlikning o`ziga xos shakli (shuningdek, ko`rinishi) bo`lib, bir tilning yoki o`ziga xos o`xshash tillarning hududiy ijtimoiy munosabatlari va alohida belgilangan geografik hududlar yoki ma`muriy-siyosiy ta`limdagi funksional o`zaro ta`sirlaridir.¹

L.B.Nikolskiyning alohida til vaziyatiga nisbatan bergan soddalashtirilgan ko`rgazmasi bo`yicha, til vaziyati deb tillarning funksional tarqalishi va mavjud bo`lish shakllari (adabiy til, dialekt, jargon va h.k)ga nisbatan aytilib, ular mamlakatdagi butun muloqotga xizmat qiladi. Uning paydo bo`lishi va keyingi shakllanishi turli vaziyatlarga bo`ysunib, jumladan, o`zaro til munosabatlari va notil (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, psixologik, tarixiy, geografik va boshqa) omillariga ham bog`liq bo`ladi. Tillarning funksional tarqalishi va ularning saq-

¹ Зарубежный Восток: языковая ситуация в странах Азии и Африки // Сборник статей. – М.: 1967. – С. 5 -15; Шоматов. О. Жанубий Осиё тилларига кириш. – Тошкент, 2003 – Б. 10 – 16.

lanib qolish shakllari (unisi ham, bunisi ham bundan keyin qisqacha tarzda til ta'minoti deb ataladi) muomala muhitiga aloqadordir.

Til ta'minotining qancha va qanday muloqot tizimlarida ishlatilishiga qarab, quyidagilarga bo'linadi.

a) etnik guruhlararo tillar (ko'pmillatli davlatning etnik guruhlari muloqotini ta'minlovchi), ya'ni umumdavlat tillari (bir millatli davlatning dialektual jamoalararo muloqotida ishlatiluvchi tillar);

b) hududiy tillar (mamlakatning hududiy qismlaridagi dialektual jamoalarining etniklararo muomalasi yoki kommunikatsiyasida ishlatiladigan tillar);

v) mahalliy tillar (dialektal jamoalar ichidagi ichki etnik muloqotni ta'minlovchi vosita yoki kommunikatsiya).

Shuningdek, kasb-hunarga oid tillar ta'limi (jumladan, fan tillari) va ma'lum dinga xizmat qiluvchi alohida tillarga (Qur'on, arab, hozirda o'lik pari tili, islom, buddizm, induizmga aloqador sanskrit tillari) ham bo'lingan holda alohida ko'rsatilishi mumkin.

Til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rganish turli davrlarda turlicha yondashuvlarga sabab bo'lgan bo'lsa-da, bu sohadagi ilmiy qiziqishlar bugungi kunga kelib yanada kuchayib bormoqda.

Tildagi elementlar doimo o'zgarishga moyil bo'lishi bilan birga qat'iy xarakterga ham egadir. Muayyan tilga ushbu tilda so'zlovchi har bir kishi doimiy ravishda ta'sir ko'rsatib turadi. Bu ta'sir, albatta, leksik va grammatik shakllarda bo'lmasa-da, tilning nutqiy foydalanish darajasida mavjuddir. Demak, til, bir tomondan, ijodiy jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan, u allaqachon vujudga kelgan qat'iy tizim hamdir.

Ushbu munosabatlardan biz til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqa qanchalik chambarchas bog'liq ekanligini ko'ramiz.

Albatta, til ham, jamiyat ham ma'lum fanlar uchun predmet hisoblanadi. Tilshunoslik yoki lingvistika tilga doir narsalarni o'rgansa, sotsiologiya fani uchun

jamiyat va unga aloqador tomonlarning barchasi uchun eng muhim tadqiqot obyektidir.

XIX asrning ikkinchi yarmidan umumiy fanlarning turli tarmoqlarga tezkor sur'atda bo'linib ketishi, ixtisoslashuvning kuchayishi bilan yangi tadqiqot sohalari vujudga kela boshladi.

XX asr boshlariga kelib til va jamiyat munosabatini alohida o'rganishga bo'lgan qiziqish turli oqimlarni vujudga keltirdi. Xususan, shu davrda tilga faqat ijtimoiy fakt, ijtimoiy mahsulot deb qaraydigan kishilar ham topildi. Til haqidagi bunday fikrlarni umumlashtirgan shaxs Ferdinan de Sossyur (1857-1913) dir. U tilshunoslikni ikki turga: ichki tilshunoslik va tashqi tilshunoslikka bo'ldi.

XX asrning 20-30-yillari til mavjudligining ijtimoiy zaruriyat ekanligini isbotlah davri bo'lsa (Y.D. Desheriyev, 1968; L.P. Yakubinskiy, 1953), faqatgina 60-yillarga kelib til va jamiyat aloqasi to'g'risidagi fan – sotsiolingvistika fanini fan sifatida o'rganish va bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borishga bo'lgan qiziqish ortdi.

Bugungi kunga kelib sotsiolingvistika fani o'zining predmetiga ega bo'lishi bilan yaxlit fan sifatida shakllandi, deyish mumkin. Shunday bo'lsa-da, sotsiolingvistika fanida ko'pgina muammolar haligacha o'z yechimini topgani yo'q.

Sotsiolingvistika fani, bir tomondan, tilshunoslik, ikkinchi tomondan esa, sotsiologiya fani muammolari bilan chambarchas bog'langandir. Bugungi kunda sotsiolingvistika fanining muhim muammolari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Tilning ijtimoiy tabaqalanishi.
2. Bilingvizm va ko'p tillilikning sotsiolingvistik xususiyati.
3. Diglossiya.
4. Til (nutqiy) vaziyatlarning tipologiyasi.
5. Milliy va adabiy tillar hamda ularning ijtimoiy funksiyalari.¹

¹ Дешериев Ю.Д. Проблема функционального развития языков и задачи социолингвистики, 1953.

Yuqorida ko`rsatilgan muammolar sotsiolingvistika fani uchun eng muhimlari hisoblanadi. Barcha sotsiolingvistik maktablar va yo`nalishlar uchun xususiy tadqiqot metodlarini ishlab chiqish va ularni tadbiq etish ham muhim masalalardan biri bo`lib qolmoqda.¹



2-chizma. Sotsiolingvistika fanining muhim muammolari.

Til – ijtimoiy fenomen sifatida rivojlanib boradi va mavjud bo`ladi. Uning asosiy vazifasi odamlar jamiyatining ehtiyojini ta`minlash, ayniqsa, birinchi galda kichik va katta ijtimoiy jamoalar o`rtasidagi o`zaro muloqotni ta`minlash, shuningdek, mazkur jamoaning jamoaviy xotirasini shakllashtirishdan iboratdir. Ayrim bir shaxsning tiliga doir va umumiy xulqi va axloqining o`ziga xosligi bilan ijtimoiy dalillarga alohida bog`liq holda ko`rinadi.

O`zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shubhasiz, muayyan darajada olib borilayotgan ma`naviy-ma`rifiy ishlar natijasida sodir bo`lmoqda. Shu ma`noda mamlakat iqtisodiyotidagi modrenizatsiya jarayonlari, bozor munosabatlarining tobora takomillashuvi, kishilar turmush darajasining

¹ Раҳимов Ғ. Тил ва жамият муносабати социолингвистиканинг асосий предмети сифатида // Тил ва адабиёт та`лими, 2002. – № 3. – В. 27-28.

muttasil ravishda o'sib borishi, pirovard natijada demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar samaradorligisiz amalga oshmasligini e'tiborga olish lozim.

Ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning yo'llari juda ko'p. Bular qatoriga fuqarolar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida turli tarbiyaviy-axloqiy tadbirlar o'tkazish, yigit-qizlarning tafakkur tarzini boyitish, ularning ma'naviy olamini shakllantirishdan tortib to O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligini, umummadaniy saviyasini oshirishgacha bo'lgan ishlarni kiritish mumkin.

Ammo ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda muhim bir omil mavjudki, uningsiz ushbu jarayonni tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bu til masalasidir. Shu ma'noda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilganligini alohida ta'kidlash lozim. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi haqidagi qonun muqaddas qadriyatimiz hioblangan ona tilimizning tom ma'nodagi himoyachisi, uning ijtimoiy nufuzining oshishiga imkon beradigan omil bo'ldi. Alohida ta'kidlash lozimki, ushbu qonun o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turadi. "Jumladan, – deydi – Islom Karim, – mazkur qonun davlat idoralarida ishlash, ta'lim olish, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlar va "senz"lardan holi ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan talab va qoidalarga to'liq javob berar edi. Shuning uchun ham u ko'pmillatli xalqimiz tomonidan mamnuniyat bilan kutib olingani bejiz emas".

Til va jamiyatning o'zaro munosabatlari muammosi o'zida tilning ko'plab qirralari bilan bog'liq jihatlarini o'zida qamrab oladi va ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tilning ijtimoiy birligi: "Tilning jamiyatdagi vazifasi", "Tillarning ijtimoiy taraqqiyotdagi asosiy yo'nalishlari", "Til va xalqning tarixi";
2. Tilning jamoatchilik institutlari va jarayonlariga munosabati: "Til va madaniyat"; "Til va din", "Til va ilmiy-texnik taraqqiyot"; "Til va maktab", "Til

va ommaviy axborot vositalari”; “Til va mafkura”, “Jamiyatning tilga ta’sir etish imkoniyatlari” va h.k.

3. Tilning jamiyatda variantlashuvi: “Funksional variantlar (tilning mavjudlik shakli)”, “Til va jamiyatning hududiy differentsiyasi”, “So’zlashuvchilarning tili va ijtimoiy roli” va h.k.

4. Tilning ko’p etnik guruhli jamiyatidagi o’zaro ta’siri: “Tillar va etnoslar”, “Tilli vaziyatlar”, “Milliylik va til siyosati”, “Tillararo aloqalar”, “Ijtimoiy aspektidagi ko’ptillilik”.

Mazkur muammolar tadqiqi bilan sotsiolingvistika shug’ullanadi, shuningdek, etnolingvistika, stilistika, ritorika, til muomalasi nazariyasi, nutq etnografiyasi va hokozolar natijasida yuzaga kelgan vaziyatlarni ham sotsialingvistika o’rganadi.

Har bir tilning tarixi shu tilda so’zlashuvchi xalq tarixi bilan chambarchas bog’liqdir. Til millatning shakllanishida alohida muhim o’rin tutadi.

Til vaziyati va til siyosatining aloqadorlik masalasi deganda, ko’proq davlatning boshqaruv doiralari, siyosiy partiyalarning til siyosatiga bevosita ta’siri nazarda tutiladi.

Til siyosati termini ostida til vaziyatini o’zgartirish yoki saqlab qolishga yo’naltirilgan choralar tizimi tushunilib, unda iste’moldagi lingvistik me’yorlarni o’zgartirish yoki barqarorlashtirish, adabiy tilni me’yorlashtirish, uni leksik va terminologik jihatdan boyitish ham tushuniladi.

Boshqacha aytganda, til siyosati – jamiyat nuqtai nazaridan qaraganda davlatning til muammolarini hal qilishga doir mafkuraviy tamoyillar va amaliy tadbirlar birligidir.¹

Til siyosati tizimidagi mafkuraviy tamoyillar va amaliy tadbirlar o’zaro bog’liq hamda ajralmasdir, chunki til siyosati milliy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanib, u asosiy jihatlari bilan keyingi umumiy tamoyillarga bog’liq bo’ladi.

Zamonaviy bosqichdagi til siyosati muammolarning murakkablik darajasiga qarab ishlab chiqiladi. Til siyosati davlatning ichki siyosati bilan chambarchas, jumladan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-mafkuraviy jarayonlarga ham bog’liq.¹

¹ Зарубежный Восток. Языковая ситуация и языковая политика. – М.: Наука, 1986. – С. 5, 20.

Til siyosati eng avvalo leksik semantik tizimga, ayniqsa, umumiy-siyosiy leksika, shuningdek, adabiy tilning stilistik differentsiyalashuvi, tilning dialektik umumlashuvi va dialektik farqning yo`qolib borishiga davlat tomonidan ishlab chiqilgan imloviy islohotlarga ta'sir qiladi.

Madaniyat sohasidagi mafkuraviy maqsadlarga muvofiqlashgan holda sinflarning belgilanishida til siyosati rejali bo`lishi mumkin (sobiq sho`ro ilmiy adabiyotida bunday siyosat til qurilishi deb atalardi; g`arbiy yevropa va amerika adabiyotida "tilni rejalashtiruv" termini ishlatilgan) va retrorejali (til va nutq madaniyati) ko`rinishida bo`ladi. Hozirgi zamonda bunday masalalar yechimi birinchi navbatda millatlar, xalqlar va ularning tillaridagi amaliy tenghuquqlilikni ta'minlaydi. Shuningdek, u iste'moldagi milliy tildan milliy davlatchilikni yaratish, ona tili asosidagi milliy madaniyatni rivojlantirish va buning uchun zarur bo`lgan shartnomalarni ta'minlashni o`z ichiga oladi. Bundan tashqari, u ona tilida ommaviy kommunikatsiya (matbuot, radio, televidenie, kino), shuningdek, rasmiy ro`yxatga olish va ish yuritishni qabul qiladi.

Ko`p tilli davlatda til vaziyati va til siyosati bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan ikkita o`zaro ta'sir ehtiyojlarini ifodalaydi, ya'ni identik (birxillashtirish) va o`zaro tushunish ehtiyojlarni.

Birinchi ehtiyoj har bir insonning har qanday vaziyatda ham o`z ona tilidan foydalanish istagi, ya'ni bolalikdan ongsiz ravishda o`zlashtirilgan tilni ifodalaydi. Identiklik bilan bog`liq bo`lgan ideal vaziyat – bir tillilikdir. Ikkinchi ehtiyoj esa istalgan kishisi bilan hech qanday muammosiz muloqotda bo`lish tushuniladi. O`zaro tushunish bilan bog`liq bo`lgan ideal vaziyat – butun ijtimoiy jamoada bitta umumiy tildan foydalanishdan iborat.

Feodalizm davrida yuzaga keltiriladigan til siyosati xalqlarni mavh etganlar tomonidan o`rnatilardi (o`zga tillik hududlarda o`rta asrlar davridagi arab yoki fors tillarining tarqalishi).

Burjua mafkurasiga asoslangan turli tarixiy o`zgarishlar davridagi til siyosatiga davlat tizimi e'tiboridan tashqari bo`lgan milliy kamchilikni tashkil

¹ Елбнин И. М. Национальная политика в КНР // Народы Азии и Африки, 1973. – №5. – С. 24 – 35.

etuvchilarning dialekti va tillari amaliyoti yotib, bu esa o'z o'rnida tillar va dialektlarning yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan, bir so'z bilan aytganda, faqat milliy ko'pchilikni tashkil etuvchi millat tiliga nisbatangina til ixtiyoriyligi siyosati kam sonli xalqlar tilidan foydalanishning chegaralanganligi siyosatida ezilgan xalqlarning madaniyati va tillariga nisbatan e'tiborsiz munosabatdagi siyosiy "vesternizatsiya"ni keltirib chiqaradi (masalan, rivojlangan davlatlarning sobiq kolonial tizimlar tiliga asoslangan holda ularning kengaytirilgan tizimlarda saqlanib qolishiga urinishi).

Amerikalik sotsiolingvistlar AQShga nisbatan til xilma-xilligi haqida emas, aynan tilning mahalliyligi haqida gapirishni afzal biladilar; bunday til siyosati millatning madaniyati, xalqning umumiy-siyosiy hayotiga nisbatan tilning roli va unda so'zlashuvchilar hayotiga doir masalalarga illyuzion erkin yondashuvni yaratar ekan, aslida esa davlatni mute xalqlarning tili to'g'risidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy g'amxo'rlikidan ozod qilib keladi hamda davlatni milliy kamchilikni tashkil etuvchilar, shu tilni ishlatuvchilar hayotidagi roli va ahamiyatiga nisbatan to'g'ri baho bermaslik, bu tillarning rivojlanishiga, ularning ijtimoiy funktsiyalarining kengayishiga ta'sir etish jarayonlariga qarshi raddiyani yuzaga keltiradi.

Davlatning til siyosati bir muncha yoki nisbatan qattiq bo'lishi mumkin, ammo uning asosiy mazmuni – davlat tili (yoki tillar)ni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Hozir ko'pgina mamlakatlarda siyosat ma'lum ma'noda yumshagan, kamchilikning til huquqlari qonunchilik tomonidan quvvatlana boshlangan. Biroq shunday bo'lsa-da, asosiy vazifa davlat tilini keng joriy qilishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Turli davlatlardagi til siyosati ham bir-biridan farqlanadi. Ammo til vazifatlarini o'rganish – ratsional til siyosatini tanlashdagi muhim yo'nalishidir, ta'sirchan davlat til siyosatini ishlab chiqish esa mavjud til vaziyatiga nisbatan bir xil baho berilishini talab etadi.

1-bob bo'yicha qisqa xulosalar

1. Til siyosati davlatning ichki siyosati, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Til siyosatining asosiy mazmuni – davlat tili (yoki tillari)ni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

2. Sotsiolingvistika – tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy taraqqiyoti sharoitlarini o'rganuvchi sohasi.

3. Til siyosati, eng avvalo, leksik semantik tizimga, ayniqsa, umumiy-siyosiy leksika, shuningdek, adabiy tilning stilistik differentsiyalashuvi, tilning dialektik umumlashuvi va dialektik farqning yo'qolib borishiga, davlat tomonidan ishlab chiqilgan orfografik islohotlarga ta'sir qiladi.

4. Barcha sotsiolingvistik maktablar va yo'nalishlar uchun xususiy tadqiqot metodlarini ishlab chiqish va ularni tadbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

2-bob. O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi va til siyosati

2.1. O`zbekistonda sho`rolar davridagi til siyosati

Sobiq sovet davrida konstitutsiyaviy jihatdan mustaqil hisoblangan, ammo aslida mustamlaka bo`lgan Markaziy Osiyoning boshqa xalqlar kabi, o`zbek xalqining ham milliy tili kamsitilgan. 60 yil mobaynida milliy tillarning rivoji haqida hech qanday qonun yoki qaror qabul qilinmaganining o`zi buning yorqin dalilidir.

Bu siyosat 1917-yil inqilobidan keyin darhol boshlanmagan. Dastavval, aksincha, qonunlar chiqqarilgan. Jumladan, 1917-1918-yillarda Turkistonda faoliyat ko`rsatgan tashkilotlarning siyosiy-huquqiy dasturlarida o`z xalqini Rossiya madaniyati bilan tanishtirish, shu bilan birga, o`z milliy madaniyatini rivojlantirish va mustaqillik, shaxs erkinligini ta`min etish, ijtimoiy va huquqiy tengsizlikka yo`l qo`ymaslik kabi g`oyalarni ilgari surish bilan bir qatorda, til masalasiga ham alohida e`tibor berilgan.

Sobiq sovet tuzumining mustamlakachilik siyosatiga to`la-to`kis o`tilgunga qadar til siyosatida milliy tillar qo`llab-quvvatlangan. Ammo 20-yillardan keyin bu siyosat butunlay o`zgargan.¹

Kishilik jamiyatining farog`at manzillari sari muntazam harakati jamiyat a`zolarining tafakkuridagi tadrijiy harakatlarsiz mumkin bo`lmaydi. Mudroq va tanbal tafakkur insonni saodat va hurriyat bo`stonlariga eltmoqqa also qodir emas. Ayni zamonda ta`kidlamoq joizki, tilsiz tafakkur va tafakkursiz til tushunchalari ma`noga ega bo`lolmaydi. Milliy taraqqiyotning, milliy hurlikning hal qiluvchi omillaridan bo`lmish milliy tafakkur tarzi xalq ruhining oynasi sanalmish ona tili asosida shamoyil topadi. Milliy tafakkur til, adabiyot, madaniyat rivoji bilan chambarchas bog`liq holatda ilgarilab boradi.

¹ Еникеев Р. Тил ҳақидаги қонунлар тарихига оид // Тил ва адабиёт та'лими, 1997. – № 2. – В. 88-90.

Shuning uchun ham hamma zamonlarda o`zga qavmlarni istibdod tuzog`ida tutmoqqa jahd qilganlar. Ayni shu haqiqatga suyanib ish boshlaganlar. Ana shunday istilochilardan biri, chor Rossiyasining Farg`onadagi general-gubernatori M.Skobelev ochiqdan-ochiq mana bunday degan: “Millatni yo`q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san`atini, tilini yo`q qilsang bas, tez orada o`zi adoyi tamom bo`ladi”. Qariyb 130 yillik mustamlakachilik davrida hukmron mustabid siyosat, qaysi rangda turlanmasin, baribir, yurtimizda ayni shu tutm asosida ish olib bordi. Bu tutumga qarshi turgan xalqimizning ne-ne mard o`g`lonlari boshida har vaqt jallod shamshiri yaltirab turdi.

Sovet davridagi til siyosatining zaminida ham milliy tillarni tushovlashdan, bu tillarni nozarur bir matohga aylantirishdan iborat o`sha g`irrom tutum yotgan edi. Buning oqibatida yaqin o`tmishimizda ona tilimizning yagona beshigi bo`lmish O`zbekistonda bu tilning haq-huqulari cheklanib, rasmiy doiralarda erkin qo`llanishiga izn berilmay keldi. Hatto qishloqdagi dehqon oddiy bir shapaloq arizani ham o`z tilida emas, balki izzatdagi o`zga tilda yozish majburiyati ostida yashadi. O`zga til otga minib, o`zbek tili yayov qolganda, o`sha “to`ra” tilda to`ti bo`lish, kamida, o`zbek tiliga u til iboralaridan qo`shib, “bo`tqa” nutq tuzish, bu qanchalik puch va g`arib tasavvur bo`lmasin, madaniyatlik, zamonaviylik belgisiga aylandi. O`sha “katta” va “ulug`” tilga keragidan ortiq ehtirom ko`rsatish urfga kirdi. Zotan, “qizil” til siyosatining maqsadlaridan biri ham shu edi.

Mustabid tuzum hukmronligidagi yaqin o`tmishimizda ming yillik madaniyat va ma`rifat sohibi bo`lgan xalqimizni istagan maqomiga yo`rg`alatmoq ilinjidagi g`irrom siyosat millatning tafakkur va taxayyul intizomining asosini tashkil etadigan bebaho mulki – tilini asoratda tutish payidan bo`lganligi ma`lum. Tabiiyki, til asorati inson ma`naviy olamining mahdudligiga, tafakkur intizomining mo`rtligiga, taxayyul parvozining tubanligiga yo`l ochadi. Shubhasizki, mahdud ma`naviyatli, mo`rt tafakkurli va tuban taxayyulli odamni qayoqqa yetaklasa, o`sha yoqqa bosh egib ketaveradi. Tili bor kishilar ruhan, ma`nan bir xalq o`laroq birlashadi. Tili bor odam bolasi bani basher silsilasida ko`z ochib, dunyoni ko`ribdiki, necha ming yillardandir, o`zligini tanib, ozodlik istab yashaydi... Tilsiz,

demakki, tafakkursiz maxluqninggina istiqloлга ehtiyoji yo`q. Buni mustabid siyosatchilar juda yaxshi bilganlar. Shuning uchun ham bu yurtda istiqomat qilgan xalq tilining, o`zbek tilining erkin qo`lanish imkoniyatlarini cheklab-chegaralab qo`yishga harakat qilganlar. O`sha davrdagi qat`iy qolip va antiqa aqidalarga ko`ra, ayniqsa, rasmiy mashvarat-izdihom, rasmiy arzi hol, harbiy muloqot va boshqa sohalarida, umuman, hokimiyat va xalq munosabatida o`zbek tilining erkin qo`llanishiga izn berilmagan. Tilimizning bunday kamsitilishi xalq hamiyatiga benihoya qattiq tekkan, unga adoqsiz azob bergan.

Sobiq ittifoq zamonida rus tili uning tarkibiga kirgan qardosh respublikalar va elatlarning asosan rasmiy muloqot tili sifatida xizmat qildi. Sobiq ittifoq parchalangandan keyin ham rus tilidagi bu xususiyatlar o`z ahamiyatini yo`qotmadi, balki o`sdi. Ikkinchi tomondan, ayrim hududlarda rus tili o`zining rasman hukumronlik vazifasini yo`qotgan bo`lsa-da, ammo davlatlararo muloqotlarni olib borish, hujjatlarni imzolash, shuningdek, mamlakatning ta`lim jarayonlarida, kashfiyotlar haqida axborot informatsiyalar olish va uzatish rus tili orqali amalga oshirilgan. Keyingi paytlarda joylarda rus tili bilan bog`liq yana bir tendentsiya, ya`ni mahalliy yoshlarni rus tilida o`qitish jarayoni qayta jonlandi.

Davlat va jamiyatda, kishilarning turmush hayotida sotsiomadaniy omillar ham salmoqli o`rin tutadi. Joylarda rus tili nufuzining oshib borishi mustaqillikni qo`lga kiritgan metropoliya davlatlari fuqarolari uchun moddiy tirikchilik manbai sifatida baynalminal makon bo`lib shakllanmoqda edi. Unday tendentsiyalarning kuchayib borishi esa o`z navbatida rus tilini o`rganish zarurligini tabiiy omillardan biri qilib qo`ymoqda. Bu ham u yoki bu millatlarning davlatchiligi bilan bog`liq davlat tilini yaratish jarayonida ayrim jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo`lgan jihatidir. Buning sababi esa, Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy munosabatlarida yuz yildan ko`proq qaram respublikalar bo`lib kelganligidir. Bu ham asosiy omil sifatida makonlarda yashab kelgan millat va etnoslar tilining rivojida hal qiluvchi ta`sirini o`tkazmoqda.

Masalan, O`rta Osiyoning Qozog`iston, Qirg`iziston va Tojikiston davlatlarida rus tili yetakchi til sifatida o`z nufuzini saqlab qoldi, ya`ni rus tiliga sirtan

munosabat o'zgarganday tuyilsa-da, aslida botinan o'zgargani yo'q. Bu o'rinda qozoq, qirg'iz tili leksikasining asosan rus tili hisobida boyib borganligini ham unutmaslik kearak. Qozog'istonning shimoliy mintaqasining rus zabonlar yashaydigan areallar ekanligi ham ortiqcha isbotga o'rin qoldirmaydi. U davlatlarda til islohotlari olib borilgan esa-da, krill alfaviti saqlab qolindi. Krill alfavitining saqlanib qolishi ham Rossiyaning tarkibida bo'lgan boshqa turkiy xalqlar bilan tildagi yaqinlikni ushlab turishda ulkan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Rossiya aholisining 20 % musulmonlarga to'g'ri keladi. Ular esa asosan turkiy tilda so'zlashuvchi aholi hisoblanadi.

Rus tiliga davlat tili sifatida barham berilishi, joylarda begona tillar o'rtasida ham o'ziga xos tendentsiyalarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Kelajakda bu omillarning kuchayib borishi ham joylarda til vaziyati bilan bog'liq ayrim masalalarni chuqur o'rganishni bevosita taqozo etmoqda. Ana shu ma'noda "siyosat – asli til siyosatidan boshlanadi" desak, xato bo'lmaydi.

O'zbekistonda sho'rolar hukmronligi paytida davlat tili haqida umuman gapirish ham mumkin bo'lmagan, aksincha o'zbek tilining ijtimoiy hayotda qo'llanilishi tobora cheklanib qolgandi. Jamiyatni qayta qurish ma'naviy polkanishni boshlab berdi. Uning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilinib, unda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Bu qonunning e'lon qilinishi o'sha davr uchun katta tarixiy ahmiyatga ega bo'ldi. Ushbu qonun o'zbek tilining rus tili soyasida siqilib, faqat ko'cha-ko'yda va oilada foydalaniladigan ikkinchi darajali bir tilga aylanib qolish xavfiga chek qo'ydi

2.2. O`zbekiston Respublikasining mustaqillik davridagi til siyosati va uning huquqiy asoslari hamda ijtimoiy-siyosiy ahamiyati

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng xalqimiz ma`naviy hayotidagi boshqa ko`plab muammolar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro`-e`tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini ta`minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar bu masalani kechiktirmasdan hal qilishni talab etar edi.

Xuddi shunday dolzarb hayotiy ehtiyoj tufayli mustaqillikning ilk qadami, samarasi o`laroq 1989-yil 21-oktyabrda O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonuni qabul qilindi, qadimiy va muqaddas ona tilimiz – o`zbek tiliga davlat tili maqomi berildi, o`zbek tili taraqqiyoti va takomilida yangi davr boshlandi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta`biri bilan aytganda, “Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo`lmish ona tilimiz o`zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo`ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma`nodagi buyuk voqea edi”.

Er yuzida yashovchi xalqlar, elatlar, qabilalar har xil tilda so`zlashadilar. Dunyoning lisoniy xaritasiga nazar tashlansa, tillar va shevalarning nihoyat darajada ko`pligi va ularning xilma-xilligi ko`rinadi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda jahon tillarining umumiy soni 2500 dan 5000 gacha va undan ortiq deb ko`rsatiladi. So`nggi ma`lumotlarga ko`ra, dunyodagi tillarning miqdori 7000 ming atrofida. Buni asoslaydigan bir dalil: 2010-yilda “National Gengrapnik” jamiyati tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiya aniqlagan Hindistondagi koro tili dunyodagi 6909-tildir. Ana shu tillar ijtimoiy mavqeiga ko`ra **rasmiy til** va **davlat tillariga** ajratiladi. Davlat tili maqomi rasmiy tildan yuqoriroq mavqega ega. Manbalarda izohlanishicha, **“Davlat tili ma`lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida integratsion funktsiyani bajaruvchi va shu davlatning ramziy belgisi hisoblanuvchi tildir”**.

Davlat tili ma'lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida faol qo'llanuvchi, shu davlatning ramziy belgilaridan biri hisoblanuvchi tildir. Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

Davlat tili – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til.

Davlat tili odatda uch yo'l bilan belgilanadi:

1) tarixiy an'analar asosida davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlarni mavjud tillaridan birini umum til sifat tan olinishi asosida;

2) hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlari tomonidan xalqaro yoki jahon tillaridan birini davlatning rasmiy tili deb e'lon qilinshi asosida;

3) davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki mamlakat prezidenti tomonidan ma'lum tilning jamiyat hayotining barcha sohalarida qo'llanilishi shart deb e'lon qilinishi asosida.

Yarim asrdan oshiq (1938-1991) davr ichida o'zbek tili mafkuraviy, siyosiy, ma'muriy jihatlardan ulkan tazyiq ostida bo'ldi. Sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) MK ning 1938-yil 13-fevraldagi "Rus tilini milliy respublikalarda majburan o'qitish to'g'risida" qarori chiqqandan so'ng sho'ro mamlakatida keng miqyosda ruslashtirish siyosati amalga oshirildi, o'zbek tili hayotning asosiy sohalaridan asta-sekin chiqarila boshlandi.

Ona tili elning taqdiri, kelajagini ham belgilaydigan eng muhim omildir. Prezidentimiz I. A. Karimovning 1989-yil 25-oktyabrda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida so'zlagan "Til elni birlashtirishi lozim" nomli nutqida ham tilning xuddi shu jihati alohida ta'kidlangan: "Birinchi navbatda shuni aytmqochimanki, o'zbek tiliga davlat maqomini berilishi hech kimda hech qanday shubha tug'dirmasa kerak. Bu allaqachon yuz berishi lozim bo'lgan hodisa ediki, aholimiz ko'pchiligining qonuniy talabi ham shunday edi.

Binobarin, o'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb juda to'g'ri aytishadi."

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng xalqimiz ma'naviy hayotidagi boshqa ko'plab muammolar qatori til masalasi ham kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, ona tilimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar bu masalani kechiktirmasdan hal qilishni talab etar edi. Shu bois O'zbekiston hukumati tomonidan til siyosatiga istiqlol siyosatining uzviy bir qismi sifatida qaraldi. O'zbekistonimizda istiqlol ona tiliga davlat maqomini berish bilan boshlandi.

O'zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, shubhasiz, muayyan darajada olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar natijasida sodir bo'lmoqda. Shu ma'noda mamlakat iqtisodiyotidagi modrenizatsiya jarayonlari, bozor munosabatlarning tobora takomillashuvi, kishilar turmush darajasining muttasil ravishda o'sib borishi, pirovard natijada demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlar samaradorligisiz amalga oshmasligini e'tiborga olish lozim.

Ma'lumki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning yo'llari juda ko'p. Bular safiga fuqarolar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida turli tarbiyaviy-axloqiy tadbirlar o'tkazish, yigit-qizlar tafakkur tarzini boyitish, ular ma'naviy olamini shakllantirishdan tortib to O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy faolligini, umummadaniy saviyasini oshirishgacha bo'lgan ishlarni kiritish mumkin.

Ammo ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda muhim biro mil mavjudki, uningsiz ushbu jarayonni tasavvur etish mutlaqo mumkin emas. Bu til masalasidir. Shu ma'noda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilganligini alohida ta'kidlash lozim. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi haqidagi qonun muqaddas qadriyatimiz hioblangan ona tilimizning tom ma'nodagi himoyachisi, uning ijtimoiy nufuzining oshishiga imkon beradigan omil bo'ldi. Alohida ta'kidlash lozimki, ushbu qonun o'zining demokratik mohiyati bilan ajralib turadi. "Jumladan, – deydi – Islom Karimov, – mazkur qonun davlat

idoralarida ishlash, ta'lim olish, mansab lavozimlari bo'yicha ko'tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlar va "senz"lardan xoli ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan talab va qoidalarga to'liq javob berar edi. Shuning uchun ham u ko'pmillatli xalqimiz kutib olingani bejiz emas".

O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish jarayonida ko'plab jihatlar e'tiborga olindi:

1. Uzoq tarixga va o'tmishda o'ta katta ijtimoiy nufuzga ega o'zbek tilining mustabid tuzum davrida juda katta to'siqlarga duchor bo'lganligi va uni tiklash milliy taraqqiyot uchun muhim zamin bo'lishi nazarda tutilgan.

2. O'zbek tilining mamlakat fuqarolari orasidagi aloqa vositasi sifatidagi o'rnini ko'rsatish, uning madaniy-ma'rifiy hayotimizdagi ahamiyatini oshirishga ahamiyat qaratilgan.

3. O'zbek tilining rivojlanishi, uning og'zaki va yozma nutq sifatida shakllanishi inson tafakkurining yanada boyishi, kishilar ma'naviy olamining kengayishiga imkon beradigan ijtimoiy hodisa sifatidagi o'rnini belgilash lozim edi.

Mustaqillikning ilk samarasi o'laroq bundan 27 yil muqaddam – 1989-yil 21-oktyabrda XI chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonun o'zbek tiliga davlat maqomini berdi. Aholisining 72 foizi o'zbek, 85 foizi o'zbek tilining biladigan Respublika uchun bu tabiiy bir hol edi.

1992-yil 7-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi. Natijada o'zbek tili mustaqil O'zbekistonimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

Shu o'rinda bir ma'lumot: Yer yuzida besh mingga yaqin til va lahjalar mavjud bo'lgani holda atigi yuzga yaqin til davlat tili maqomiga ega. Har birida yigirma milliondan ortiq odam gaplashadigan tillarning umumiy soni qirqqa bormaydi.

Davlat tili haqidagi qonun qabul qilingandan keyin, 2 yil o'tgach, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Mamlakatimizda yuz berayotgan real jarayonlar va imkoniyatlarni hisobga olib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini uzil-kesil joriy etishni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish vazifasi til islohoti bilan bog'liq masalalariga zarur tuzatishlar kiritish ehtiyojini tug'dirdi, respublika hali sobiq Ittifoq tarkibida bo'lgan va madaniy-ma'naviy sohada o'ziga xoslikni mustahkamlashga intilgan bir sharoitda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonunning ko'pgina moddalariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishni taqazo etdi. Natijada 1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 6-sessiyasida "Davlat tili haqida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilindi. Avvalgi qonunda 30 ta modda mavjud bo'lgan bo'lsa, yangi tahrirda ayrim keraksiz moddalar qisqartirilib, mustaqil mamlakatimizda o'zbek tilini rivojlantirish, davlat til siyosatining asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab beruvchi qoidalar o'zaro izchillikka, bog'liqlikka asoslangan 24 ta moddada jamlangan. Ana shu asosda mamlakatimizda o'zbek tilning jadal taraqqiyoti tamoyillarini tayin etadigan, shu yurtda istiqomat qiladigan boshqa millatlarning ham yuragiga g'ulu solmaydigan benihoya xolis til siyosati shakllandi.¹

Qonun loyihasining bugungi mukammal shakli va mazmunini kashf etishda muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning shaxsiy fikr va mulohazalari o'z aksini topganligi, bu kishining sa'y-harakatlari tufayli Qonun matni xalq tomonidan iliq qabul qilinib, o'ziga keng yo'l ochganligi shubhasiz.

Qonun o'zbek xalqining milliy va ona tilisi bo'lgan o'zbek adabiy tilining huquqiy asosi hisoblanadi.

¹ Махмудов Н. Давлат тили ва умуминсоний қадриятлар // Тил ва адабиёт та'лими, 1999. – № 5-6. – В. 20-30.

2.3. O`zbekiston respublikasining til siyosatida boshqa millat vakillari va ularning tillariga e`tibor masalasi

O`zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o`zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining, uning iste`mol qilinish doirasini kengaytirishning, o`zbek tilini o`qitish sifatini yaxshilashning muhim kafolati sifatida qaralmog`i lozim. Ayni vaqt, o`zbek tiliga davlat maqomi berilishi respublika hududida yashovchi boshqa millatlar tillarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda foydalanishiga monelik qilmaydi.

2005-yilgi ma`lumotlarga ko`ra, O`zbekistonda 139 millat vakillari istiqomat qiladi.

Hozirgi kunda o`zbeklar O`zbekiston aholisining deyarli 4/5 qismini tashkil qiladi. Shuningdek, aholining 4,0 foizini ruslar, deyarli 5 foizini tojiklar, 4,5 foizini qozoqlar, 1,8 foizini tatarlar tashkil qiladilar. Demokratik O`zbekistonda aholining ko`pmillatlilik darajasi yanada o`smoqda.

Yuqoridagilardan ko`rinadiki, o`zbek tili O`zbekistonda istiqomat qiluvchi turkiyzabon fuqarolar va qisman, tojiklar uchun millatlararo til bo`lib xizmat qilmoqda.

O`zbek tili O`zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida e`tirof etilar ekan, hududagi tillarning faoliyat ko`rsatishi, rivojlanishi va boshqa millat vakillarining o`z ona tillarida erkin aloqa qilishlari uchun aslo monelik qilmaydi.

Yangi tahrirdagi O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonuni 24 moddadan iborat bo`lsa, shundan beshtasida boshqa millat va elat vakillari tillarining erkin amal qilishi himoya qildinadi. Bu qonunni boshqa millatlarni hurmat qilish, kamsitmaslik, aniqrog`i, millatparvarlik, xalqparvarlik, erkinlik tamoyillariga asoslanganligini ko`rsatadi.

“Davlat tili haqida”gi qonunning 4-moddasida: **“O`zbekiston Respublikasida davlat tilini o`rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan**

munosabatda bo`lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o`qitish bepul amalga oshiriladi”, – deb yozilgan.

Demak, Qonunga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida barcha millatlar va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo`lish belgilangan va ta'minlangan.

Davlat fuqarolarning davlat tilini o`rganishlari uchun zarur iqtisodiy, huquqiy chora-tadbirlar ko`radi vat eng shart-sharoitlar yaratib beradi.

O`zbekiston Respublikasida uning hududida yashovchi barcha millatlar va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo`lish ta'minlanadi.

Mazkur moddaning ikkinchi qismiga muvofiq, respublikada yashovchi, ammo davlat tilini bilmaydigan fuqarolarga Davlat tomonidan bepul o`qitish ta'minlanadi.

Fuqarolarga bunday g`amxo`rlik, birinchi navbatda, ularning ish va o`qish joylarida ko`rsatilishi lozim.

O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonunining 5-moddasiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko`rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda ularning tillarida faoliyat ko`rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etilishi qayd etilgan.

Qonunga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta`lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O`zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o`rta maxsus va oliy ma`lumot olishni ta'minlaydi (6-modda).

Qonunning yuqoridagi moddalari mamlakatimiz milliy siyosatining bosh tamoyiliga asoslangan bo`lib, fuqarolarga ta`lim tilini erkin tanlash huquqini berish barobarida ta`lim to`g`risidagi konstituttsiyaviy me`yorni rivojlanishiga asos bo`ldi. “Yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti”

mavzusidagi xalqaro konferentsiyada e'tirof etilgani va ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi 7 ta: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida ta'lim beradigan 1906 ta maktab mavjud bo'lib, ularda 725 ming nafar o'quvchi ta'lim oladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilini o'qitishga e'tibor kuchaydi, dars soatlari ko'paydi, umumta'lim maktablari uchun yangi zamonaviy andozalarga mos tarzda umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yangi ona tili darsliklari va o'quv lug'atlari yaratildi.

Bunday demokratiya va xalqparvarlik boshqa biror davlatda kuzatilmaydi. Bu ham O'zbekiston Respublikasining til siyosati va "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston o'zbeklarnikigina emas, balki O'zbekistonda yashayotgan barchaniki degan davlat siyosatining singdiril-ganligini ko'rsatadi.

Demak, yurtimiz tinchligi, osoyishtaligi yo'lida barcha xalq vakillarining bu yurti o'z Vatanim deb, uning ravnaqi yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib hamjihatlik bilan mehnat qilishlari uchun respublikamizning boshqa qonunlari kabi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunida ham puxta zamin yaratilgan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi boshqa milliy tillarni qo'llashda cheklashlarni va ularga nisbatan mensimay qarashni nazarda tutmaydi. Davlat barcha milliy tillarning erkin amal qilishi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy hamda huquqiy choralarni ko'radi, o'zbekcha-ruscha, ruscha-tojikcha va boshqa ikki tillilikni hamda ko'ptillilikni turli xil yo'llar bilan rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari, qaysi til ularning ona tili ekanligidan va ular o'zaro qaysi tilda muloqotlashishlaridan qat'i nazar, teng huquqlidirlar. Ularning huquqlari, erkinligi va qadr-qimmatini biror-bir tilni bilishlari yoki bilmasliklariga qarab kamsitilishi va cheklab qo'yilishi mumkin emas.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini kamsitishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar, tashviqot va targ'ibot qonun bo'yicha jazolanadi, bunday g'ayri-huquqiy xatt-harakatlarni sodir etgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan

ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Ularga nisbatan, shuningdek, jamoatchilik tomonidan ta'sir choralari ham ko`rilishi mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 42-moddasiga muvofiq, fuqarolarning tarbiya va ta'limda tilni erkin tanlash to`g`risidagi huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to`siqlar hamda cheklashlar vujudga keltirish davlat tiliga, shuningdek, O`zbekiston Respublikasida yashovchi xalqlar va elatlarning tillariga mensimay qarash eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo`ladi. Bunday huquqbuzarlik haqidagi ish tuman yoki shahar sud'yasi tomonidan ko`rib chiqiladi.

Qonunning 24-moddasida: **“O`zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xususmat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o`zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalgam oshirishga to`squinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo`ladilar”**, – deb ko`rsatilgan.

Mazkur moddada turli xil yo`llar bilan millatlararo nizoni keltirib chiqarishning oldini olishga va qat'iyan yo`l qo`ymaslikka, milliy or-nomusni haqorat qilish yoki kamsitish natijasida yetkazilgan ma'naviy zararni qoplashga qaratilgan.

O`zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining g`ururi va or-nomusi sud tartibida ham himoya qilinadi. Mazkur modda, boshqa qonunlar kabi milliy adovat va nafratni targ`ib etuvchi tashkilotlar hamda guruhlarining faoliyatini man qiladi.

Mansabdor shaxslar respublika davlat tilini bilmaslikni ro`kach qilib, fuqarolarning arizalari, shikoyatlari va takliflarini qabul qilishdan va ularni ko`rib chiqishdan bosh tortish huquqiga ega emasdirlar. Fuqarolarning o`zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqlarini amalgam oshirishga to`squinlik qiluvchi barcha xatti-harakatlar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonunining 5-moddasiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko`rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda ularning tillarida faoliyat ko`rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etilishi qayd etilgan.

Demak, Qonunga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida barcha millatlar va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo`lish belgilangan va ta`minlangan.

“Shu aziz Vatan – barchamizniki”, “O`zbekiston – yagona uyimiz” – Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan aytilgan bu hikmatli da`vatlarning ma`no-mohiyati bugun xalqimizning, millatidan qat`iy nazar, shu yurtda yashayotgan har bir insonning hayotidan mustahkam o`rin egalladi, tom ma`noda qalb amriga aylandi. Zotan, “millatlararo totuvlik” tushunchasi – milliy g`oyamizning muhim tamoyillaridan biri. Yurtboshimiz “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta`kidlaganidek, “milliy g`oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini ujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o`z ichiga oladi”.

Mustaqillik yillarida 140 ga yaqin millat va elat yashayotgan O`zbekistonda har bir millat va elatning ravnaqi va barqaror taraqqiyotini ta`minlash, ularning xavfsizligi va yashash kafolatlariga har qanday tahdidlarning oldini olish davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan va Konstitutsiyamizda belgilab qo`yilgandir.

O`zbekistonda istiqomat qilayotgan ko`p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o`zliklarini anglash jarayonlariga bo`lgan intilishlarini qonuniy-huququiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo`lib keldi. Shu o`rinda 1989-yili madaniyat vazirligi huzurida respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilishini alohida ta`kidlash lozimdir. Agarda 1990-yillarning boshlarida O`zbekistonda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyat ko`rsatgan bo`lsa, hozirgi kunda kelib ularning soni 80 dan ortdi. Mustaqillik yillarida milliy-madaniy markazlar faoliyati ustidan muvofiqlashtiruvchi ishlarning ko`lami ham ortdi va 1992-yil yanvar oyida hukumat qarori bilan Respublika Baynalmilal Madaniy markazi tashkil etildi.

O`zbekistonda hozirgi paytda 100 dan ortiq millat va elatlar vakillari yashasada, ularning ichida eng yiriklari – ruslar va rus tillilar, qozoqlar, tojiklar, qirg`izlar, turkmanlari, tatarlar, qrim-tatarlar va koreyslardir.

O'zbekistondagi ruslar va rus tillilar deganda etnik ruslar hamda rus tilini ona tilisi hisoblaydigan ukrain, belorus kabi slavyan millatlari vakillarini hamda tatarlar va koreyslarning bir qismini tushunish mumkin. Hozir O'zbekistonda bu ripdagi aholi 1,5 million kishi atrofidadir. Mamalakatimizdagi rus va rus tillilar asosan poytaxt Toshkent va boshqa yirik shaharlarda yashaydilar, qishloqlarda yashovchi bu tipdgi aholi deyarli yo`q darajada.

Rus tahlilchisi Roy Medvedevning fikricha, sobiq Sho`ro tuzumi tugagan-dan keyin, Markaziy Osiyo davlatlaridan O'zbekistonda rus tili va ruslarga eng kam bosim o'tkazildi. Rasmiy Toshkent hamisha rus tili va ruslarga kerakli darajada hurmat va e'tibor ko'rsatib keldi. Shu sababli ruslarning O'zbekistondan ko'chib ketishi, aytaylik, Qirg'iziston va Tojikistonga ko'ra oz edi.¹ Rus tahlilchisi 1998-yilda qabul qilingan Davlat tili haqidagi Qonunning yangi tahririda (1995) milliy ozchiliklarga rasmiy tilni o'rganish va amalda qo'llash til vajidan anchayin o'rin berilganligi O'zbekistonning rus fuqarolarining kayfiyatlariga optimism qo'shdi, deb hisoblaydi.²

O'zbekistonda rus tili o'zbek tili bilan bir qatorda, ta'limning har qanday turini olish mumkin bo'lgan til maqomidadir. Mamlakatdagi ruslar yashaydigan barcha shaharlardagi maktablar, litseylar, kollejlari, institute va universitetlarda ruscha ta'lim beradigan sinflar, guruhlar va bo'limlar mavjud. 1996-1997-o'quv yilida O'zbekistonda 384.128 kishi (o'quvchi) rus maktablari yoki rus sinflarida o'qigan. Rus o'quvchilar uchun darsliklarning bir qismi Rossiyadan keltirilgan, asosiy qismi esa O'zbekistonda chop etilgan.

Ruslar g'uj bo'lib yashaydigan Toshkent shahrida 2005-2006-o'quv yilida mavjud 315 maktabning 53 tasi rus maktablari edi, shuningdek, 99 ta maktabda ta'lim o'zbek tili bilan bir qatorda rus tilida olib borilgan. 2006-yilda O'zbekiston oily o'quv yurtlarida jami 8769 talaba ta'lim olgan va ular O'zbekistondagi umumiy talabalarning 6,99 foizini tashkil etgan.³

¹ Медведев Р. Русский Язык на просторах СНГ - <http://magazines/russ/ru/druzhba/2006/10/mel I.html>.

² Медведев Р. Русский Язык на просторах СНГ – <http://magazines/russ/ru/druzhba/2006/10/mel I.html>. (December, 2007)

³ Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане - <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007)

O'zbekistonning Rossiya bilan geopolitik, siyosiy, iqtisodiy munosabatlari har doim yaxshi bo'lib keldi. Bu esa o'zbek jamiyatida har doim rus tilining obro'-e'tibori yuqori bo'lishini ta'minlab kelgan. Jumladan, respublika teatrlarida ruscha tomoshalar qo'yishning oshishi, maktab va oily o'quv yurtlarida rus tili dars osatlarining ko'payishi kuzatilgan. Shuningdek, Toshkentda 2006-yilda Moskva davlat universiteti va Moskva neft va gaz institutining filiallari ham ochildi.¹ Respublikadagi ruslar va rus tili aholi o'zlarining kelajagiga umid va ishonch bilan qaraydilar.²

O'zbekistonda 1994-yilda Rus madaniyati markazi tashkil etilgan edi. Mamlakat viloyat va shaharlarida bu markazning bo'limlari maqomidagi rus madaniy-ma'rifiy uyushmalari mavjud va ularning faoliyati ruslar va rus tili aholining madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Rus madaniy markazning tashabbusi bilan respublikada Pushkin tavalludining 200 yilligi (1999), Visotskiyning 60 yilligi (2000) yubiley tadbirlari o'tkazildi. 1998-yildan beri har yili "Yangra, garmon!" musiqa festivali o'tkazib kelinmoqda. Respublikada ruslarning "Russkiy lapotok", "Veseliye palochki" folkloq ansambillari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.³

O'zbekistondagi mahalliy rus va rus tilli aholining diniy ehtiyojlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, O'zbekistonning barcha yirik shaharlarida pravoslav cherkovlari, Toshkentda katoliklar cherkovi, Samarqadda Armanilar cherkovi faoliyat ko'rsatmoqda.⁴ 2006-yilda mamlakatda Rus pravslav cherkovining 125-yilligi keng nishonlandi. Hozirgi payda O'zbekistonning 2 ayollar va erkaklar monastri faoliyat ko'rsatmoqda. Rus Pravslav Cherkovining Markaziy Osiyo va Toshkent yeparxiyasi Arxiyepiskopi Vladimirning qayd etishicha, "O'zbekistondagi pravoslav xristianlari davlatning g'amxo'rliqi ostidadir". Uning aytishicha, hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning faol

¹ Как живется русским в Узбекистане? - <http://www.uzbekistan.Clant/su/news/2006-07-28-6> (December, 2007)

² Медведев Р. Русский Язык на просторах СНГ - <http://magazines/russ/ru//druzhba/2006/10/mel I.html> (December, 2007)

³ Как живется русским в Узбекистане? - <http://www.uzbekistan.Clant/su/news/2006-07-28-6> (December, 2007)

⁴ Ислам и толерантность. Пример Узбекистана - http://www.Fromuz.Com/news/islam_i_tolerantnost_primer_uzb (December, 2006)

yordami bilan Toshkentda Rus Pravoslav Cherkovining Ma'naviy-ma'muriy markazi qurilmoqda.¹

Tojiklar mintaqaning tub joy xalqlaridan va O'zbekiston ularning tarixiy vatani hisoblanadi, bugungi O'zbekiston hududidagi asrlar davomida shakllangan moddiy va ma'naviy madaniyatning yaratuvchilari safida o'zbeklar bilan birga tojiklar ham mavjud. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning so'zlari bilan aytganda "Vatanimizda yashayotgan tojiklar uchun O'zbekiston haqiqiy va qadimiy vatan bo'lgani kabi, Tojikiston bu respublikadagi o'zbeklarning haqiqiy va qadimiy vatanlaridir".² Sotsiologik so'rovlar O'zbekistonda yashovchi tojiklarning 22 foizi o'zbek tilini o'z ona tilisi deb hisoblashini ko'rsatganligi ham bejiz emas.³ Ayni shu tarafi bilan tojiklar respublikadagi boshqa milliy ozchiliklardan farq qiladilar.

Tojiklar O'zbekistonning Andijon, Xorazm viloyatlaridan va Qoraqalpog'iston Respublikasidan boshqa barcha viloyatlarda o'zbeklar bilan yonma-yon yashaydilar va aholining 5 foizga yaqinini tashkil etadilar. O'zbekistonning markazidan joy olgan Samarqand va Buxoro shaharlarida esa tojiklar g'uj bo'lib yashaydilar.

Qayd etish kerakki, tojik aholining vakillari O'zbekistondagi davlat va jamoat tashkilotlarining barcha darajalarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Shuningdek, respublika hukumati mamalakatdagi tojiklarning milliy-madaniy ta'lim ehtiyojlarini qondirishga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. Respublika poytaxti Toshkentda, tojiklar g'uj yashaydigan Samarqand, Buxoro shaharlarida, Boysun, Sariosiyo tumanlarida (Surxondaryo viloyati), Chust tumanida (Farg'ona viloyati) tojiklarning milliy-madaniy markazlari mavjud.⁴

O'zbekistondagi 282 tojik maktablari va ko'plab maktablardagi tojik sinflarida 100 mingdan ortiq o'quvchilar ta'lim olmoqda, bir qancha universitetlarda, ayniqsa, tojiklar g'uj bo'lib yashaydigan mintaqa shaharlaridagi

¹Как живется русским в Узбекистане? – <http://www.uzbekistan.clan/su/news/2006-07-28-6> (December, 2007)

² Каримов И. А. Выступление на торжественной церемонии открытия дней Республики Таджикистан в Узбекистана – http://2004.press-service/uz/rus/knigi/9tom/7tom_7.htm (December, 2006)

³ Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане - <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007)

⁴ Шоисломов Ш. Проблемы в Центри Азим раздуваются искусственно – <http://www.Avesta/tj/articles/2/83115/html> (30.08.2007)

universitetlarda (Samarqand, Buxoro, Termiz universitetlari) ta'lim tojik tilida olib boriladigan fakultetlar va bo'limlar mavjud.¹ 2006-yilda O'zbekiston oily o'quv yurtlarida 2472 tojik talaba ta'lim olgan va ular jami o'zbekistonlik talabalarning 1,97 foizini tashkil etgan.

Bu ta'lim maskanlari uchun asosiy darsliklar O'zbekistonda tayyorlanib, chop etilmoqda. Tojikistonda darslik yetkazib berish an'anasi to'xtab qolgani tufayli O'zbekistonda tojik tilidagi darsliklar nashr etish 1996-yildan boshlangan va 1997-yildayoq 23 turdagi yangi tojikcha darsliklar maktablarga yetkazib berilgan.² Shuningdek, O'zbekistonda yuz minglab tirajda tojik tilida gazetalar, jurnallar chop etilmoqda, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar berilmoqda. O'zbekistonning Tojikistondagi elchisi Sh.Shoislomovning so'zlari bilan aytganda, "O'zbekistondagi tojiklar o'z milliy kimligini saqlab qolishlari uchun barcha shart-sharoitlarga egadir. Ular boshqalardan yaxshi ham, yomon ham yashamaydi, barcha qatori hayotning quvonch va tashvishlari bilan yashamoqdalar".³

Qozoqlar ham tojiklar ham O'zbekistonning tubjoy aholisi hisoblanadi. O'zbekistondagi qozoqlarning miqdori 1 millionga yaqin. Qozoqlar asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi (aholining 24,8 foizi), Navoiy viloyati (10,2%), Toshkent viloyati (13,7 %), Jizzax viloyatlarida (6,6 %) yashaydilar. Asosan chorvachilik va boshqa qishloq xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanadilar.

O'zbekistonda qozoqlarning madaniy-milliy va ta'limiy ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli sharoitlar yaratilgan. Jumladan, respublika poytaxti Toshkent va qozoqlar yashaydigan hududlarda 50 ta Milliy-madaniy markazlar mavjuddir. Respublikada 522 ta qozoq maktablari bo'lib, ularning 234 tasida darslar faqat qozoq tilida olib boriladi (jami 175 ming o'quvchi). Qozog'iston Respublikasining va O'zbekiston Respublikalari ta'lim vazirliklari o'rtasida bu maktablarni darslik va o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning malakasini oshirish, maktablararo aloqalarni yo'lga qo'yish

¹Шоисломов Ш. Проблемы в ЦентриАзим раздуваются искусственно – <http://www.Avesta/tj/articles/2/83115/html> (30.08.2007)

² Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане – <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007)

³Шоисломов Ш. Проблемы в ЦентриАзим раздуваются искусственно – <http://www.Avesta/tj/articles/2/83115/html> (30.08.2007)

bo'yicha shartnomalar mavjud. Toshkent pedagogika universitetida qozoq tili va adabiyoti fakulteti, Siradaryo, Jizzax, Nukus va Navoiy shaharlaridagi Pedagogika institutlarida ta'lim qozoq tilida olib boriladigan bo'limlar bor. Bu fakultet va bo'limlarda mamlakatdagi qozoq maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlanadi. Toshkent shahri va viloyatiga Qozoq telekanallari doimo olib ko'rsatiladi, "Nurli jo'l" nomli respublika gazetasi chop etiladi.

O'zbekistonda mamlakatning qozoq grajdanlariga o'z milliy-madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan shart-sharoitlarning mavjudligiga qaramay, Qozog'iston hukumatining mamlakatga dunyodagi etnik qozoqlarni jalb qilish va ko'chirib keltirish xususidagi tutgan siyosati tufayli 1991-2001-yillar orasida Qozog'istonga 180 ming qozoq ko'chib o'tdi. Ularning asosiy qismi (75%) Orol dengizi ekologik halokati yuz bergan Qaraqalpog'istondan ko'chib ketgani diqqatga sazovordir.

Tatarlar tarixning taqozosi bilan butun jahonga tarqalgan turkey xalqlaridan biridir. Butun dunyoda bugun yashayotgan 12 million tatarlarning 2,5 millionigina Tatariston Respublikasi (Rossiya) hududlarida yashaydi. 1552-yilda Ruslar Qozon xonligini bosib olgach, keyingi 450 yil davomida Tatarlar dunyoning 50 ga yaqin davlatiga tarqalib ketdilar.

Markaziy Osiyoga, shu jumladan, O'zbekiston hududlariga Ruslar Turkistonni bosib olishdan ancha ilgari kelishni boshlagan edilar. 1860-yillarda, chor Rossiyasi Turkistonni bosib olganida, bu yerda 5 ming tatar yashar edi. XIX asr oxiri, XX asr boshida Turkistonga tatar savdogarlari, sanoatchilari, ma'ifatparvarlari va oddiy tatar ishchilari ko'plab kelib o'rnatila boshladilar. Turkistondagi Jadidlar harakatida va Sovetlarga qarshi olib borilgan istilochilik (bosmachilik) harakatida tatar ziyolilari va vatanparvarlarining roli katta bo'lgan edi (Musa Begiyev, Zaki Validiy, To'g'on va boshqalar). Sovet davri tatarlarning O'zbekistonga ko'chib kelib o'rnatilishida 1980-yillargacha davom etdi. Jumladan, 1979-yilgi aholi ro'yxatida O'zbekistonda yashagan tatarlar soni 539 ming kishi edi. 1989-yilgi aholi ro'yxatida esa tatarlar soni 467 ming kishi ekanligi aniqlandi.

Demak, tatarlar 80-yillardayoq O'zbekistondan ko'chib ketishni boshlagan edilar. Hozir O'zbekistonda 250-ming tatar istiqomat qiladi, deb taxmin qilinadi.¹

O'zbekistondagi Tatarlarning uchdan bir qismi, ayniqsa shaharda yashovchi tatarlar rus tilini o'z ona tilisi deb biladi.² Bu qism tatarlar, ukrain, belorus va koreyslar bilan bir qatorda o'zlarini "Rus tillilar" toifasiga mansub aholi deb hisoblaydilar. Tatarlarning aksariyat ko'pchiligi o'zbek tilini yaxshi biladi, chunki ular bir-biriga yaqin qarindosh tillardir.

O'zbekistonda tatar tilida mashg'ulotlar olib boruvchi maxsus maktablar mavjud bo'lmasa-da, tatarcha ta'lim beriladigan sinflar Toshkent maktablarida, tatarlar g'uju bo'lib yashaydigan hududlarda (Toshkent viloyati, Qashqadaryo viloyati) mavjud. Bundan tashqari yakshanba kunlari dars olib boriladigan tatar tili sinflari ishlab turibdi. Respublika oliy o'quv yurtlarida 2006-yil ma'lumotlariga ko'ra 1337 tatar talaba ta'lim oladi va ular umumiy talabalarning sonining 1,07 foizini tashkil etadi.³ Tatarlarning respublika milliy-madaniy markazi hamda barcha viloyatlarda shunday markazlari mavjud.

Qrim-tatarlarning O'zbekistonda deportatsiya qilinishi va ularning mamlakatimizdagi 60 yillik tarixi mavjud. Qrim-tatarlar 1956-yildan boshlab o'z tarixiy vatanlariga qaytish uchun harakatlar boshlangan bo'lsa-da, 1989-tildagina amaliy natijalarni qo'lga kiritdilar. O'sha yili SSSR Oliy Soveti maxsus qaror qabul qilib, Qirim tatarlarning deportatsiyasini jinoyat deb topdi va ularning vatanlariga qaytish huquqi mavjud ekanligini e'tirof etdi. Ana shunday keyin Qirim tatarlarning Qrim Respublikasiga (2014-yilgacha Ukrain tarkibida) ommaviy qaytish boshlandi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zosi bo'lgan davlatlarning 1992-yil 6-oktabrda qabul qilgan Bishkek deklaratsiyasiga asosan Markaziy Osiyodagi qirim-tatarlar yashaydigan davlatlar (O'zbekiston va Tojikiston) va Ukraina hukumatlari bu xalqning o'z tarixiy vataniga qaytishiga imkoniyatlari darajasida yordam ko'rsatdilar.

¹ Татары Узбекистана – [http://tatarica/yuldash/com/society/article486%5c;Rim Гиниятуллин – старишина татар Узбекистана](http://tatarica/yuldash/com/society/article486%5c;Rim%20Гиниятуллин%20–%20старишина%20татар%20Узбекистана) – <http://gazeta.islamnn.ru/modules/php?name=article&sid=240>(Juni, 2007)

² Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане – <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007)

³ Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане – <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007)

Hozirgacha O'zbekistondan 170-180 ming Qrimga ko'chib ketdi va hozirgi vaqtda bu mamlakatda 75-80 ming nafar qirim tatarlar yashamoqda va ularga O'zbekistondan ko'chib ketishi muqarrar bo'lgan aholi sifatida qaraladi (chunki, ularning 73foizi Qrimga ko'chib ketishni rejalashtirmoqda).¹

Qrim tatarlarning milliy-madaniy ehtiyojlarini qarshilash uchun 1957-yildan e'tiboran "Lenin bayrog'i" va "Yildiz" jurnali nashr etib kelinar edi. 1990-yillar boshida bu gazeta va jurnal qirim-tatarlarning ommaviy ravishda Qrimga ko'chib ketishi munosabati bilan o'z faoliyatini to'xtatdi. Respublika maktablaridagi darslar qrim-tatarcha olib boriladigan sinflar ham u sabab yopildi. O'zbekistonda qrim-tatarlarning respublika milliy-madaniy markazi hamda ular g'uj bo'lib yashaydigan viloyat va shaharlarda madaniyat markazlari mavjud.

Xullas, O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy ozchiliklarning milliy, madaniy, ta'lim, matbuot-matabaa bobidagi ehtiyojlarini qondirilishiga birinchi darajali e'tibor berildi, chunki yurtimizdagi milliy ozchiliklar tubjoy aholi qatori Vatanimizning fuqarolaridir va ularga barcha shart-sharoitlarni tayyorlash jamiyat va davlatning burchidir. Ana shunday don ova insonparvar yondashuvlar tufayli mamlakatimizda barcha millat va elatlarning vakillari tinch-totuv yashab, Vatanimiz ravnaqi uchun mehnat qilmoqdalar.²

Yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" gi Qonuni millatparvarlik, boshqa millat va elat vakillariga hurmat, e'tibor tamoyillari asosida tuzilgan bo'lib, xalqlararo hamdo'stlik hamda osoyishtalikka, mazkur qonunning hayotiyiligiga, bardavomligiga xizmat qiladi.

¹ Назаров Р.Р., Алиева В.Р., Юнусова Д.М. Русский язык в Узбекистане – <http://www.ia-centr.ru/expert/257/> (December, 2007)

² Eltazarov J. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan til siyosati xususida (1999-2000-yillar) // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Андижон, 2016. – Б. 35-40.

2-bob bo'yicha qisqa xulosalar

1. Sobiq sovet tuzumi davrida konstitutsiyaviy jihatdan mustaqil hisoblangan, ammo aslida mustamlaka bo'lgan Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari kabi, o'zbek xalqining ham milliy tili kamsitilgan. Uzoq yillar mobaynida milliy tillarning rivoji haqida hech qanday qonun yoki qaror qabul qilinmaganligi buning yorqin dalilidir.

2. Davlat tili – ma'lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida faol qo'llanuvchi, shu davlatning ramziy belgilaridan biri hisoblanuvchi tildir. Davlat tili tegishli davlatdagi umumiy rasmiy til.

3. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi o'zbek xalqi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining, uning iste'mol qilinish doirasini kengaytirishning, o'zbek tilini o'qitish sifatini yaxshilashning muhim kafolati bo'ldi.

4. Ayni vaqtda, o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi respublika hududida yashovchi boshqa millatlar tillarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotda foydalanishiga monelik qilmaydi. Bu davlatimiz til siyosatining ijobiy qirralaridan biridir.

5. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan ko'p millatli xalqlarning madaniy taraqqiyoti, ularning o'zlikgini anglash jarayonlariga bo'lgan intilishlarini qonuniy-huquqiy asosda qondirish masalalari ham mamlakat hukumati oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib keldi. Shu o'rinda 1989-yili Respublika millatlararo madaniy markazning tashkil etilganligi va buni uzluksiz rivojlantirib, takomillashtirib borilayotgani muhim siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga egadir.

3-bob. O`zbekiston Respublikasining til siyosati va o`zbek tili taraqqiyoti

3.1. O`zbek tili taraqqiyotining yangi davri va ijtimoiy muammolar

Qonun qabul qilinishi natijasida o`zbek tilining tarixiy taraqqiyotida yangi bir davr boshlandi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotda ona tilimizning mavqei tiklandi. Natijada O`zbekistonda yangi bir lisoniy muhit yuzaga keldi. So`nggi chorak asr davomida tilimiz taraqqiyoti va ravnaqi borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy doirada o`zbek tilining mavqei ortdi, tiklandi, qo`llanish doirasi kengaydi.

Qadimiy va muqaddas ona tilimiz – o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga, taraqqiyoti va takomilida yangi davr boshlanganiga salkam chorak asr bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonuni o`z mazmun-mohiyati bilan o`zbek tili taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Natijada O`zbekistonda yangi bir lisoniy muhit yuzaga keldi.

O`zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi quyidagi yutuqlarga olib keldi:

1. Bu yillar davomida tilimiz taraqqiyoti va ravnaqi borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy doirada o`zbek tilining mavqei ortdi, tiklandi, qo`llanish doirasi kengaydi.

2. Mustaqillik yillarida o`zbek tilini o`qitishga e`tibor kuchaydi, dars soatlari ko`paydi, umumta`lim maktablari uchun yangi zamonaviy andozalarga mos tarzda umumiy o`rta ta`lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yangi ona tili darsliklari va o`quv lug`atlari yaratildi.

3. O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonuni va hozirgi tezkor zamon talablari asosida o`zbek tilining milliy rasmiy-idoraviy uslubi shakllandi va amaliyotga joriy etildi, *spravka, raport, protokol, xarakteristika* kabi devonxona terminlari o`rniga *ma'lumotnoma, bidirishnoma, bayonnoma*,

ishonchnoma, tavsifnoma singari yangi terminlar iste'molga kirdi hamda hozirda faol qo'llanmoqda.

O'zbek tili ish yuritish tizimini tartibga solish, birxillashtirish va kamchilik hamda xatoliklarni bartaraf etish maqsadida N. Mahmudov, M. Aminov, N. Mahkamovlar tomonidan **“O'zbek tilida ish yuritish”** nomli qo'llanma yaratildi va u 1990-2010-yillarda qayta-qayta nashr etildi. Unda o'nlab ish qog'ozlarining namunaviy shakllari keltirilgan, biroq barcha muassasa va tashkilotlarda ish qog'ozlari talablar darajasida rasmiylashtirilmoqda deb bo'lmaydi. Ulardagi imloviy va ishoraviy xatolarni, uslubiy g'alizliklarni bartaraf etish asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan yumushlardan biridir. Ish yuritishga mutasaddi xodimlar o'zbek tili rasmiy-idoraviy uslubi qonun-qoidalarini yuqoridagi manbalardan chuqur o'rganishlari va amaliyotda unga qa'tiy rioya qilishlari lozim.

4. O'zbek yozuvi isloh qilindi – jahondagi rivojlangan davlatlarning 30 foizi keng foydalanayotgan lotin alifosiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

5. Yozuv, imlo – ilmning yarmi, ya'ni chiroyli husnixat bilan imloviy va ishoraviy xatolarsiz yozish kishining mukammal ilmga ega ekanligi belgisidir. Shu bois davlat tili to'g'risidagi qonunda yozma nutq, imlo masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi qarori bilan **“O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini”** tasdiqlandi.

Tildagi mavjud so'zlarni har kim o'zicha yozavermaydi. Yozma nutq odatda imlo qoidalariga asoslanadi. Tildagi mavjud so'zlar, iboralar, nomlar va boshqa birliklar hukumat tomonidan tasdiqlangan imlo qoidalarini, ularga asoslanib tuzilgan imlo lug'atlari asosida yozilishi shart.

Hozirda ikki – krill va lotin alifbolariga asoslangan o'zbek yozuvlari amalda qo'llanmoqda. Krill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvini qo'llashda 1956-yil 7-aprelda tasdiqlangan “O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalarini”ga, lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan “O'zbek tilining

asosiy imlo qoidalariga amal qilinishi kerak. Matbuot, televideniya va ko'cha reklama yozuvlarida kuzatilayotganidek, har ikki yozuvga oid imlo qoidalarini qorishtirish yaramaydi. Ular o'z tamoyillari, qonun-qoidalar bilan bir-biridan keskin farqlanadi.

To'g'ri, hozirga qadar lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga doir yirik imlo lug'atiga ehtiyoj bor edi. Bu vazifa mutaxassislar tomonidan uddalandi. "Akademnashr" nashriyoti tomonidan filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida filologiya fanlari doktori, professor E.Begmatov va filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim A.Madvaliev tomonidan tuzilgan yangi **"O'zbek tilining imlo lug'ati"** krill va lotin yozuvlarida alohida-alohida kitob holida nashr etildi.

O'zbek tilining katta hajmdagi mazkur imlo lug'atining har birida 85000 dan ortiq so'z va so'zshaklning to'g'ri imloviy shakli berilgan. Mazkur nashrgacha 65000 dan ortiq so'z va so'zshakllarni o'zida jamlangan "O'zbek tilining imlo lug'ati" (1979) chop etilganiga o'ttiz besh yildan ziyodroq vaqt o'tdi. Bu orada o'zbek tili leksikasidagi bir qator so'zlar imlosida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbek tilining yozuv tizimida islohotlar va o'zgarishlar yuz berdi. Krill va lotin yozuvlarida nashr etilgan yangi "O'zbek tilining izohli lug'ati" ana shu eng so'nggi o'zgarishlarni hisobga olib tuzilgan. Yangi imlo lug'atlari so'zligining boyligi; imlosi qiyin va munozarali bo'lgan, hozirga qadar turli sabablar bilan imlo lug'atlariga kiritilmay kelinayotgan so'zlarni ham qamrab olganligi; nashr etilgan va etilayotgan boshqa izohli, entsikolpedik, terminologik lug'atlarning ijobiy imloviy tajribalarini hisobga olinganligi; keyingi o'ttiz yil davomida o'zbek tili imlosi amaliyotida yuz bergan, ko'pchilik tomonidan ma'qul deb topillayotgan ijobiy imloviy o'zgarishlarga e'tibor berilganligi; mustaqillik davrida o'zbek tiliga kirib kelgan yangi so'z va terminlar yozilish shaklini ilmiy-imloviy baholangani bilan ahamiyatga molikdir.

Ayni paytda kundalik muloqotda, ommaviy axborot vositalarida o'zbekona nutq madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlarni bajarishimiz kerak. Ayniqsa, ko'plab tele va radio eshittirishlarda adabiy til me'yorlariga rioya qilinmayapti,

ma'lum sheva unsurlarini g`urur bilan qo'llash odatiy holga va hatto an'anaga aylanib qolmoqda.


Zero, yozuv, imlo – chiroyli, xatosiz, to`g`ri yozish – ilmning yarmi ekan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy sohada, xususan, o`qish-o`qitishda, matbuotda, televideniya, rasmiy-idoraviy ish yuritishda imlo savodxonligiga jiddiy e'tibor qaratish davrning dolzarb vazifasidir. Ko`chalardagi reklama yozuvlari, muassasa, korxona va tashkilotlarning peshlahalari, geografik obyektlar ko`rsatkichlari imloviy xatolarsiz yozilishi shart.

6. Respublikamiz to`g`ridan-to`g`ri chet ellar bilan aloqalarini rivojlantirmoqda, iqtisodi, texnikasi, fani, madaniyati va san'ati tobora yuksalmoqda. O`zbek tilshunosligining turkiyshunoslikdagi obro`yi ham ortib bormoqda. O`zbek tili Amerika, Germaniya va Shevetsariyadagi bir necha universitetlarda, Turkiya, Hindiston hamda Afg`onistonda o`rganilmoqda. So`nggi yillarda Pekindagi Milliy universitetda, Janubiy Koreyaning Pusan universitetida, Kiev Milliy universitetida maxsus o`zbek tili yo`nalishlari ochilgan hamda bu ta'lim muassasalari O`zbekiston Milliy universiteti o`zbek filologiyasi fakulteti bilan hamkorlik qilmoqda.

7. Jamiyatda yuz berayotgan bu o`zgarishlar tilda ham o`z aksini topa boshladi, chunki til jamiyatidagi barcha ijtimoiy jarayonlarning ifodasidir. Jamiyat tilsiz taraqqiy eta olmaganidek, til ham jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi, rivoj topmaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yuz bergan islohotlar, boshqa xalqlar va davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar natijasida o`zbek tili lug`at tarkibi *globallashuv*, *brifing*, *geosiyosat*, *sammit*, *parlament*, *spiker*, *audit*, *auditor*, *broker*, *diler*, *marketing*, *supermarket*, *minemarket*, *konsalting*, *investor*, *paynet* kabi yuzlab xorijiy o`zlashma so`zlar bilan boyidi.

O`zbek tilining lug`at tarkibidagi o`zgarishlarni tadqiq qilar ekanmiz, keyingi o`n yil ichida o`zbek tili lug`atida salmoqli o`rin egallagan bir jarayonni kuzatdik:



3-chizma. Oʻzbek tilining lugʻat tarkibidagi oʻzgarishlar.

1) Nofaol lugʻatning faollashish jarayoni. Masalan:

<i>iqtisod</i>	<i>tashkilot</i>	<i>jarroh</i>
<i>ijtimoiy</i>	<i>badal</i>	<i>hakam</i>
<i>qandolat</i>	<i>dastur</i>	<i>qoʻmita</i>
<i>maishiy</i>	<i>daqiqqa</i>	<i>kotib</i>

kabi bir qator soʻzlar qaytadan faollashib, jamiyat kundalik hayotida keng ishlatila boshladi.

2) Ayrim soʻzlarning qaytadan isteʼmolga kirishi. Masalan:

<i>vazir</i>	<i>jamoʻa</i>	<i>hokim</i>
<i>shirkat</i>	<i>joʻgʻrofiya</i>	<i>hudud</i>

zobit

kimyo

qarorgoh

3) Jahon madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fani yangiliklari, narsa, voqelik o'zbek tiliga o'z nomi bilan kirib keldi.¹ Bular jumlasiga quyidagi yangi so'zlar (neologizmlar)ni kiritish mumkin:

biznes

dividend

reyting

marketing

kompyuter

bakalavriyat

menejment

internet

magistratura

broker

xit

assotsiatsiya

barter

gala-konsert

auditor

4) Qator so'zlarning boshqa tillardagi ekvivalentlari olindi. Masalan:

tolib

tahririyat

tamoyil

toliba

muharririyat

prinsip

talaba.

7. O'zbek xalqining buyukligi, qudrati, tarixi va orzu-intilishlari, buyuk maqsadlari, kelajagi o'zbek tilida Davlat madhiyasi orqali butun dunyoga taralmoqda. *Kurash, halol, chala, yonbosh, g'irrom* kabi o'zbek tilidagi sport terminlari bir qator xorijiy tillarga o'zlashdi va faol qo'llanmoqda. Bular, albatta, har bir o'zbekka g'urur, iftixor va faxr ba-ishlaydi. Chindanda, o'zbek tili – ona tilimiz, nodir va noyob, sehru jozibali boyligimiz, faxr-u iftixorimizdir.

8. Qonunning 23-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shart-noma matnlari davlat tili va ahadlashuvi tomonning tilida yozilishi ta'kidlanadi. Bu modda o'zbek tilining jahon miqyosidagi rasmiy davlat tili sifatida e'tirof etilishini, vazifa doirasining kengayishi va nufuzining ko'tarilishini ta'minladi.

9. 1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ona tilimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini oshirish, mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash, farzand-

¹ Қўшокова Б. Жамият тараққиётида миллий тил ривожининг ўзига хос хусусиятлари // Til va adabiyot ta'limi, 2003. – № 5. – B. 4-6.

larimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratmoqda.

10. O'zbek tiliga – davlat tili maqomi berilgunga qadar korxona, muassasa va tashkilotlarda faoliyat yuritish, hujjatlari majlis, yig'inlar, ularning qarorlari, arizalarni ko'rib chiqish, ilmiy tadqiqot ishlari deyarli rus tilida olib borilganligi bugun g'ayri oddiy ko'rinadi. Ammo haqiqiy holat shunday edi. Endilikda, ahvol tubdan o'zgardi. Millat ma'rifati yo'lida yangi nashriyotlar tashkil etildi. Darslik, qo'llanma va kitoblar asosan ona tilimizda chop etilmoqda. 50 mingga yaqin maqolani o'z ichiga olgan "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", "Islom entsiklopediyasi", "Qur'on", "Hidoya", "Hadis" (to'rt jildli), "O'zbek ismlari izohli lug'ati" va boshqa lug'atlar o'zbek tilida nashr etildi. Milliy mentalitetning o'sishida "Tafakkur", "Muloqat", "Jahon adabiyoti", "Jannat makon" jurnal-larining tashkil etilishi muhim voqea bo'ldi. Barcha nashrlar OAVning ko'لامي va sifat miqyosi tilimiz o'zligiga qaytganligi, u millat g'ururi, timsoliga aylanganligining dalolatidir. Bu degan so'z taraqqiyotning hozirgi bosqichida o'zbek tili – milliy madaniyat rivojlanishining haqiqiy vositasi bo'lib qolganligining kafolatidir.

11. Mustaqillik sharofati bilan milliy tilimiz rus tili siquvi ostidan qutuldi. Adabiy til me'yoriga aylana yozgan ruscha so'z va iboralarning qo'llanishi barham topdi. Kishilarning yarim o'zbekcha, yarim ruscha so'zlardan iborat muloqotlari ancha susayib, milliylik to'nini kiya boshladi. O'sha paytlarda rus tiliga ayrica munosabat hukmronligi bois, bu tilni bilish, so'zlashish, ijod qilish madaniyatlilik, zamonaviylik belgisi hisoblanar edi. Ruscha: *так что, уже, молодец, отлично, хорошо, ответ киламан, звонит киламан, пока, досвидание, ужин, обед, дорогая, товарищ, я тоже, добро вечер* kabi so'z va iboralarning nutqda qo'llash esa odatiy holga aylangandi. Ilmiy tadqiqot ishlari asosan rus tilida borilar, o'zbek tilidagi nashrlar kam edi. Birgina dalil: O'zFA Tarix institutida 1980-1985-yillarda yozilgan ilmiy asarlarning 80 foizi rus tilida, 12-13 foizi xorijiy tillarda, faqat 3 foizi, u ham bo'lsa ommabop maqolalar o'zbek

tilida nashr etilgan. Ming shukurki, bugun ilmiy tadqiqotlar va ularning nashrlari ham o'zbek tilida olib borilmoqda.

12. Dastlab mustaqillik yillarida chetdan kirib kelgan, o'zlashma so'zlardan butkul voz kechish, barcha so'zlarni o'zbekchalashtirish lozim deguvchilar ko'p bo'ldi va ular: *samolyotni tayyora, paroxodni suv ayg'iri, vodorodni suv tug'dirg'ich, kislородni achchil, velosipedni jin arava, abiturientni tahsiltalab, radioni ovoznigor, fakultetni kulliyot, klubni tomoshagoh, laboratoriyani tajribaxona, telegrammani shoshilinchnoma, aeroportni tayyoragoh, qo'nalg'a deb atashdi. Yonma-yon qo'llanib kelinayotgan: slovar – lug'at, norma – me'yor, krushka – cho'mich, document – hujjat, alfavit – alifbo, tumbichka – javon, analiz – tahlil, adres – manzil, invalid – nogiron, vistavka – ko'rgazma, informatsiya – axborot, broshyura – risola kabi so'zlarning milliy muqobilini keng muomalada qo'llash yo'lga qo'yildi.*

13. O'zbek tilidagi *vazir, tuman, viloyat, hokim, patta, chipta* kabi ayrim eskirgan so'zlar yangi ma'nolar bilan to'yingan holda tiklandi; *ma'naviyat, qadriyat, mentalitet, millatparvar* kabi unutilgan so'zlar o'z qadrini topdi; *bag'rikenglik, dalolatnoma, yo'riqnoma* kabi yangi so'zlar yasaldi; *broker, innovatsiya, internet, menejment, monitoring* kabi juda ko'plab xorijiy so'zlar tilimizga kirib keldi.

Yaxlit so'z (leksema)larni so'z birikmasi yoki tasviriy ifoda bilan nomlash taklifi ilgari surildi. Chunonchi, *ixtiro qog'ozi (patent), o'zi tushirgich (samosval), ilmiy safar (ekspiditsiya), himoyachilar idorasi (advokatura), qonunlar majmuasi (kodeks), terma kitob (xrestomatiya), moddiy yordam ko'rsatuvchi (sponsor), chetga mol chiqarish (eksport)*.¹ Keyinchalik tushunib yetildiki, yer yuzida sof tilning o'zi yo'q. Qaysidir bir til, boshqa tildan so'z olib oziqlanadi, boyib boradi, bu albatta, tabiiy jarayon. Shuning uchun bu so'zlarning avvalgi muqobillari adabiy me'yor deb belgilandi. Bu me'yorlar xalqning ongiga singib ketgan va tushunarli bo'lib qolgan, uzoq davrlardan beri qo'llanib kelinayotgan so'zlar edi. So'z qancha qisqa bo'lsa, bu tilning boyligini ko'rsatuvchi omil ekanligini,

¹¹ Begmatov E. O'zbek tili va adabiyoti // Toshkent, 2006. 4-son. – B. 9.

leksemalarni soʻz birikmalariga almashtirish, tilning qashshoqlashishiga olib kelishi aniqlandi.

14. Istiqloлга erishgach, mustaqil Oʻzbekiston davlati oʻzbek xalqining maʼnaviy qadriyatlarini tiklash, xalqning oʻzligini anglash, mustaqillikning sharofatini chinakamiga sezish ishiga juda katta eʼtibor bera boshladi. Joy nomlari, ayniqsa, tarixiy toponimlar, milliy qadriyatlar milliy tilning bebaho boyligi hisoblanadi.

Shu tufayli shoʻrolar davrida joylarga berilgan oʻzbek xalqi maʼnaviyati, ona tili ruhiga yot boʻlgan nomlarni tugatish, ularni yangi nomlar bilan almashtirish nihoyatda zarur edi. Mana shunday oʻta zarur, ulkan siyosiy va lisoniy tadbirning tashbuskori, rahnamosi Prezidentimiz I.A.Karimov boʻldi. U oʻzi-ning Oliy Majlis yigʻinlarida, respublikaning turli joylarida qilgan chiqishlarida eski tuzumdan qolgan sunʼiy, milliy qaryatlarimiz ruhiga zid boʻlgan toponimlarni tugatish haqida koʻp bor gapirdi. Natijada, Oʻzbekiston hukumati, joylardagi hokimiyat organlari joy nomlarini oʻzgartirish, yangilash, yaʼni, mustaqillik davri talablariga moslash ishiga kirishdi. Bu ish Oʻzbekiston Respublikasi til siyosatini uzviy bir qismi sifatida ham ilmiy, ham tashkiliy, ham amaliy jihatdan toʻgʻri yoʻlga qoʻyildi.

Bunda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika toponimiya komissiyasining tuzilgani, uning respublikada toponimik obyektlarga nom berish masalalari bilan jiddiy shugʻullana boshlagani, viloyat tuman va yirik shaharlarda ham toponimiya komissiyalari tuzilgani muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Respublikadagi tabiiy-geografik obyektlarga nom berish, ular nomini oʻzgartirish, yangi bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Bu tadbirlarning qabul qilinishi va amalga oshishida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oʻzbekiston Respublikasidagi maʼmuriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obʼektlarning nomini tartibga solish toʻgʻrisida” 1996-yil 31-mayda qabul qilingan qarori va 203-sonli qarori boʻyicha Tavsiyalari (1996-yil 31-iyul), shuningdek, “Oʻzbekiston Respublikasida

ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi Qonuni muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu borada Namangan viloyati hokimligi, jumladan, shahar va tuman hokimliklaridagi toponimik komissiyalar tomonidan ham bir qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Ular quyidagilarda yaqqol ko'rinadi:

Tarixiy ahamiyatga molik nomlarni tiklash, eski tuzum bilan bog'liq nomlarning joylardagi saqlanib qolgan qoldiqlarini tugatish, joy nomlarini davlat tili – o'zbek tilida, hozirgi joriy yozuvda yozish an'anasi amaliyotga kirdi. Masalan, *Naymancha* (avvalgi O. Jo'raboev ko'chasi), *Lashkar* (avvalgi T. Shermatov ko'chasi), *Olti og'ayni* (avvalgi I. Nabiev ko'chasi), *Olchinmozor* (To'ra.t. avvalgi M. Haqnazarov ko'chasi), *Chuqurko'cha* (To'ra.t. avvalgi S. Budyoniy ko'chasi), *Arg'amchilik* (To'ra.t. avvalgi R. To'raboev ko'chasi), *Buloqboshi* (Chor. t. avvalgi S. Rahimov ko'chasi), *Qirqqiz* (Chor. t. avvalgi H. Olimjon ko'chasi), *Sultonsaid* (avvalgi S. Rahimov ko'chasi), *Eshonko'cha* (avvalgi U. Yusupov ko'chasi), *Yangitong* (Nor. t. avvalgi U. Yusupov MFY), *Obod* (To'ra.t. avvalgi G'alaba MFY) kabi.¹

Joylarni nomlashda ularga shaxs nomlarini berishning ba'zi me'yorlari ishlab chiqildi.

Joylarga kishilar nomlarini berishni cheklash bo'ldi. Ushbu munosabat bilan joylarga avvallari shoshilinch ravishda qo'yilgan va kishi nomlaridan iborat bo'lgan toponimlarni joyning tabiiy-geografik holatini ifoda etadigan, istiqloq mafkurasiga javob beradigan nomlar bilan almashtirildi, bir qancha hududlarning oldingi tarixiy nomlari tiklandi. Milliy istiqloq yillari davomida respublikamizning viloyat, Shahar, tumanlarida eski tuzum mafkurasi bilan bog'liq bo'lgan, mustamlaka davri g'oyalarini targ'ib qiluvchi, hech qanday milliy ma'no, xususiyat kasb etmaydigan nomlar bilan atalib kelingan yuzlab qishloq, mahalla,

¹ Солихўжаева Х. З. Наманган шаҳри микротопонимиясининг тарихий-лисоний тадқиқи // Маг. академик ил. ... дисс. 2014.

guzar nomlari fuqarolarning taklif va mulohazalari asosida mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda o'zgartirildi.

Bir qancha tarixiy, qadimiy nomlar tiklandi. Masalan, *Ko'nychilik* (avvalgi *Bozor ko'chasi*), *Bazzoz* (avvalgi *Gulpora ko'chasi*), *Kigizchi* (avvalgi *Sh. Rizaev ko'chasi*), *Qadamjoy* (avvalgi *Ittifoq ko'chasi*); *O'rikzor* (avvalgi *Ostrovskiy ko'chasi*), *Jiydakapa* (avvalgi *VLKSM 50 yilligi ko'chasi*), *Langar* (avvalgi *Vorovskiy ko'chasi*), *Boyko'cha* (avvalgi *Voykov ko'chasi*), *Qalampirtepa* (avvalgi *Shkolnaya ko'chasi*), *Misgar* (avvalgi *Klara Setkin ko'chasi*) kabi.¹

Joy nomlari tizimidagi takroriylik masalalari ko'rib chiqildi va bunga barham berildi.

O'zbekiston Respublikasidagi toponimik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi Majlisining 2006-yil 21-iyuldagi bayoniga asosan Namangan shahri hokimining 2006-yil 23-avgustdagi 682-sonli qaroriga bilan 67 tadan ziyod ob'ektlar qayta nomlandi, quyidagicha o'zgartirildi: Mehnatobod mahalla fuqarolar yig'inidagi *Obod* (takroriy) ko'chasi *Tafakkur*, 1-Axsikent mahalla fuqarolar yig'ini *Axsikent*, Madaniy maorif mahalla fuqarolar yig'inidagi *Xidiraliev* ko'chasi *Baxmal*, Nurchi mahalla fuqarolar yig'inidagi *Nurchi* (takroriy) ko'chasi *Porloq*, Navbag'or mahalla fuqarolar yig'inidagi *Olmazor* (takroriy) ko'chasi *Sebzor*, Yangi qurilish mahalla fuqarolar yig'inidagi *Yangihayot* (takroriy) ko'chasi *Ibn Sino*, Ishchi mahalla fuqarolar yig'inidagi *Y. Oxunboboev* (takroriy) ko'chasi *Hamroh*, Yangi tong mahalla fuqarolar yig'inidagi *Kamolot* (takroriy) ko'chasi *Iftixor* kabi.

Har yili 21-oktyabrni yurtimizda o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlash ezgu an'anaga aylangan. Ushbu sanaga bag'ishlangan tadbirlarda "Davlat tili haqida"gi qonunning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar atroflicha tahlil etiladi. Shu munosabat bilan xalq ta'limi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida oliy o'quv yurtlarida "Tilga e'tibor –

¹ Қаранг. Наманган шаҳридаги номлари ўзгарган кўчалар, маҳалла фуқароо йиғинлари, мактаблар ва бошқа топонимик номлар ҳақида маълумотлар. – Наманган, 1997. – 25 б.

elga e'tibor", "Ona tili – davlat tili", "Odob boshi – til" kabi mavzularda turli tadbirlar, ilmiy konfrensiyalar o'tkazib kelinmoqda.

Ayniqsa, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan har yili oktyabr oyida yurtimizdagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fan oyligi o'tkazish yaxshi yo'lga qo'yilgani, bu muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash lozim. Chunki bu muhim tadbir yoshlarda tilimizga bo'lgan hurmatni yuksaltirish, mazkur fanga oid bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Jamiyatning rivojlanishini ta'minlashda, davlatimizning mustaqilligini mustahkamlashda davlat tilining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyati ulkan. Uning asosida barkamollik, ma'naviyat, tafakkur, qolaversa, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik tarkib topadi. Shuning uchun ham oiladi, ta'lim muassasalarida, idoralarda bu masalaga alohida ahamiyat beriladi.

Xalq ta'lim vazirligining 1989-yil 25-sentabrdagi 386-sonli buyrug'i bilan ta'sis etilgan va har ikki yilda bir marotaba o'tkazib kelinayotgan **"O'zbek tili ta'limini takomillashtirishning dolzarb masalalari"** doimiy ilmiy-amaliy anjumani "Davlat tili haqida"gi Qonun ijrosini ta'min etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1991-yil yanvarda Samarqandda bo'lib o'tgan yig'ilishi **"O'zbek tilini o'rganish va o'qitishni qayta ko'rish hamda takomillashtirish"** mavzuiga bag'ishlandi. 1993-yilda Qarshi shahrida bo'lib o'tgan 2-yig'ilishida **"Ona tili ta'limi mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari"** muhokama etildi. 1995-yilda Jizzaxda bo'lib o'tgan 3-yig'inda **"Ta'lim jarayonida o'quvchilar so'z boyligini oshirishning asosiy omillari"** belgilab olindi. 1997-yil Toshkent shahrida o'tkazilgan 4-yig'inda **"Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari"** ko'rib chiqildi. Doimiy anjumanning 1998-yil aprel oyida Buxoroda bo'lib o'tgan 5-yig'inida **"Ta'lim jaraynida nutq madaniyatini shakllantirish muammolari"** tahlil etildi va tegishli tavsiyalar qabul qilindi. Umuman, "O'zbek tili doimiy anjumani" yig'inlarida ona tili ta'limini yangilash va takomillashtirish muammolari bilan bir qatorda ta'lim boshqa tillarda olib

boriladigan muassasalarda o'zbek tilini o'qitishning dolzarb masalalari ham qamrab olindi, bu sohadagi yutuqlar va nuqsonlar muhokama etilib, navbatdagi vazifalarni bajarish yuzasidan aniq rejalar belgilanib borilmoqda.¹ Mana shunday ilmiy-anjumanning mavjudligi, uzluksiz va davomiy ish olib borayotganligi ham O'zbekistondagi davlat siyosatining ijobiy samaralaridan biridir.

Qadimgi xitoy allomasi Konfutsiydan “Agar sizga vakolat berilsa, nimani kechiktirib bo'lmaydigan ustuvor vazifa, deb hisoblagan bo'lardingiz?” – deya so'rashganida, u: “Tilni tartibga keltirish eng zaruriy vazifadir”, – deb javob bergan ekan.

Ona tiliga bo'lgan munosabat ham vatanparvarlikdir. Uning go'zalligini, sofligini asrash esa yuksak insoniy va ma'naviy burch.

O'zbek tilining o'rganish va mavqeini oshirish borasida ham qilinadigan ishlar hali bisyor. Ayni paytda kundalik muloqotda, ommaviy axborot vositalarida o'zbekona nutq madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlarni bajarishimiz kerak. Ayniqsa, ko'plab tele va radio eshittirishlarda adabiy til me'yorlariga rioya qilinmayapti, ma'lum sheva unsurlarini g'urur bilan qo'llash odatiy holga va hatto an'anaga aylanib qolmoqda.

Tilga e'tibor faqat til bayrami kunlaridagina emas, har kuni, har daqiqada davom etishi kerak. O'z maqomi bilan o'zbek tili ona tilimiz va davlatimiz tili ekan, uning sofligi, go'zalligi, qadr-u qimmatini uchun kurashish har bir o'zbekning insoniy hamda fuqarolik burchidir.

Suyukli adibimiz Tohir Malik uqtirganidek: “Til – so'z uchun, yurak – ko'ngil esa shu so'zdan lazzatlanish uchun berilgan. Shu tufayli to'g'ri, rost so'zni so'zlash uchun tilni tebratmoq, ya'ni harakatlantirmoq kerak. Egri, yaroqsiz so'zlarni tashqariga chiqargandan ko'ra tilning harakatsiz qolgani ma'qul”.²

N. Mahmudov tilning e'zozlash va qadrlash haqida fikr yuritarkan ekan, ona tilining kamsitilishi shaxsning hamiyatiga daxl ekanligini, shu bois har qanday hamiyatli inson bu masalaga befarq bo'lmasligi lozimligini mazmunan asosli

¹Саиджонов Й. Таълим ислохотлари жараёнида “Давлат тили ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни-нинг ўрни ва аҳамияти // Til va adabiyot ta'limi, 1999. – № 5-6. – В. 8-20.

² Тоҳир Малик Тилингни авайла. – Тошкент: Davr Press, 2010. – Б. 13.

uqtiradi: “Hamiyatli jamiyat hamiyatli a’zolar bo’lgandagina shakllana oladi. Jamiyat hamiyatining himoyachisi, eng avvalo, ona tilidir, chunki millatning bosh belgisi til bo’lib, unga har qanday nopisandlik bevosita jamiyatga nisbatan hurmatsizlik tarzida idrok etilmog’i tabiiy. Chinakam hamiyatli odam o’z ona tiliga aslo nopisandlik bilan qaramaydi, boshqalar tarafidan nafaqat o’z tilining, balki o’zga tillarning ham, zarracha bo’lsin, kamsitilishiga befarq bo’lmaydi. Ona tiliga har qanday daxlni u o’z hamiyatiga daxl deb biladi. Hamiyatli odamgina ona tilining oxirsiz ohangidan faxr tuya biladi”.¹

Shunday ekan, Siz ham tirikligimiz, mavjudligimiz va shajaramiz bardavomligi, kelajagimiz asosi bo’lgan ona tilimizni – navqiron, go’zal, jozibali, maftunkor, betakror, boy, qudratli o’zbek tilini qadrlash, e’zozlash, sevishtirish va pokiza, sof saqlash bizning insoniy, farzandlik burchimizdir! Zero, adabiyotshunos olim Ozod Sharofiddinov ta’kidlaganlaridek, “Tilni mensimaslik millatni mensimaslik, vatanni mensimaslikni ko’rsatadigan o’ta noxush holdir”.

Milliy qadriyatlar millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlardan, xususiyatlar va ma’naviy boyliklardir. Qadriyatlar — jamiyatda, kishilar o’rtasida obro’ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasidan iborat. Qadriyatlar tushunchasi voqelikdagi muayyan hodisalar-ning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko’rsatish uchun qo’llaniladi. Dunyoda milliy qadriyatlari bo’lmagan birorta millat yoki elat yo’q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar ana shu millatning borligini, mavjudligini ko’rsatadi va bardavomligini asosi sanaladi. Milliy qadriyatlar mamlakat mustaqilligini mustahkamlaydigan ma’naviy asoslardan biri ekanligi bois mustaqillikka erishganimizdan so’ng milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi.

Bizning milliy qadriyatlarimiz ona yurtga ehtirom, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo’lishi

¹ Махмудов Н. Ҳамиятни ерга урманг // Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матабаа ижодий уйи, 2012. – Б. 43.

mumkin. Ilmiy manbalarda qadriyatlarning quyidagi shakllari qayd etiladi: moddiy, ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy.

Qadriyatlar insoniyat tarixi davomida asta-sekin shakllanadi. Insoniyat tarixi unga xizmat qiladigan, o'zi yaratgan, suyanadigan va qo'llab quvvatlaydigan qadriyatlar dunyosining kengayish, boyish va takomillashish tarixidir. Insoniyat o'zining kundalik mehnati bilan yaratayotgan sun'iy narsalar dunyosida yashaydi. Biz yaratayotgan moddiy va ma'naviy boyliklar olamining gultoji, sarasi qadriyatlardir. Qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, qadriyatlar juda sermazmun va ko'p qirrali tushuncha.

Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarining manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushuniladi. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Insonning hayotida madaniy-ma'naviy qadriyatlar katta o'rin egallaydi. Unga ilmiy texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta'lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo'ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san'at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar va hokazolar kiradi.

Ona tilini e'zozlash, sevish, qadrlash, uning sofliqi, go'zalligi, qadr-qimmati uchun kurashish milliy qadriyatlarning eng muhimidir. Demak, qadriyatlarga e'tibor tilga e'tibordan boshlanadi. Til Vatanni, o'zlikni, dunyoni anglash kaliti, ma'naviyat asosi ekanligi va boshqa milliy qadriyatlarni ifodalaydigan, ma'lum nom ostida mavjudligini belgilaydigan tilsim, mo'jizaligi bois milliy qadriyatlarning boshidir. Shu bois til sabog'ining asos va mazmuni o'quvchilarda ona tiliga mehru muhabbat uyg'otish, ularda uning go'zalligidan faxrlanish, quvonish hisini tarbiyalash bo'lmog'i lozim. Tajribadan ma'lumki, narsa, voqea-hodisalarni anglash ularning nomini ifodalovchi so'zlarni uqishdan, anglashdan boshlanadi.

Demak, qadimiy o'zbekona qadriyatlarni o'rgatish ona tili darslarida amalga oshiriladi. Bundan anglashiladiki, ona tili darslari qadriyatlar sabog'idir. Shunday ekan, ona tili va adabiyoti o'qituvchilari darslarda o'quvchilarga qadriyatlarni singdirish bilan bog'liq quyidagi ishlarni amalga oshirmoqlari kerak:

1) o'quvchilarga ona tilining boyligini, go'zalligini, jozibasi va nozu nazokatini o'rgatish, sigdirish asosida undan faxrlanish, quvonish hisini tarbiyalash;

2) o'gitlar, pandu nasihatlar, maqollar tahlili va ibrat ko'rsatish asosida o'quvchilarda ona tilining sofligi va "tozaligi" uchun kurashish ruhini shakllantirish;

3) axloq-odob mazmuniy uyasiga mansub: *vatanpararlik, xalqparvarlik, fidoiylilik, mehnatsevarlik, sadoqat, halollik, tantilik, saxiylilik* kabi yuzlab so'zlarning lug'aviy-ma'naviy tahlili asosida o'quvchilarda yuksak ma'naviy, axloqiy fazilatlarni shakllantirish;

4) zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsiyalar asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlar bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarni hamda ularda xalqona qadriyatlarga hurmat, sodiqlik hissini tarbiyalash. Shundagina hozirgi zamonaviy pedagogikaning talablariga muvofiq tarzda ona tili darslarida ta'lim va tarbiya uyg'unligi tamoyiliga amal qilingan bo'ladi.

Ayni paytda o'zbek tilining ijtimoiy nufuzini yanada oshirish, uning imkoniyatlaridan kengroq va samaraliroq foydalanishga xalaqit qilayotgan ayrim omillar mavjudligini e'tiborga olishni muhim deb bilamiz:

1) o'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida ish yuritish jarayonida to'liq qo'llanishi, ya'ni "Davlat tili haqida" gi Qonun talablari so'zsiz bajarishiga erishish lozim;

2) barcha ta'lim muassasalarida insho yozishga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki insho orqali o'quvchiyu talaba turli xil sinovlardan o'tadi, uning imlo savodxonligi aniqlanadi, muayyan mavzuni qay darajada bilishi hamda uni qanday o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi. Eng asosiysi, insho orqali o'quvchining ichki olami, ma'naviy dunyosi, tafakkur tarsi ifodalanadi. Shu sababli ham

yozilgan insho o'z mazmun-mohiyati, ishlatilgan tinish belgilari, so'zlarning uslub jihatidan qo'llanishiga ko'ra baholanadi.

Inshoda og'zaki va yozma nutq mahorati mujassamlashadi, ya'ni yozma nutq – inshoda yozilgan so'z va gap qoliplari asta-sekin mustahkamlanib borib, og'zaki nutqda qo'llash uchun tayyor andoza holiga keladi. Insho yozish kishidan faqat lisoniy tayyorgarlikni emas, balki siyosiy ijtimoiy yetuklikni, falsafiy mushohadani, madaniy saviyani ham taqazo etadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim muassasalarida insho yozishni qat'iy talab sifatida kun tartibiga qo'yishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz;

3) milliy yozuvga jiddiy e'tibor qaratish, nashr etilayotgan barcha adabiyotlarning imloviy to'g'ri bo'lishini ta'minlash, imlo lug'atlarini ko'p nushada chop etish masalasini hal etish kerak;

4) ommaviy axborot vositalarida o'zbek tilining ahamiyati, millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi roli, shaxs ma'naviy kamolotida ona tilining o'rnini masalalari muntazam yoritib borilishi kerak. Televideniya "Tilga e'tibor" ko'rsatuvini qayta tiklash, barcha tele-, radiokanallarda ona tili va adabiyot bilan bog'liq materiallar berib borilishini ko'paytirish lozim;

5) ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, umuman olganda, ijtimoiy rivojlanishni yanada kengaytirish maqsadida kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyat sari dadil qadam tashlanayotgan bir paytda tilshunos va adabiyotshunoslar, shoir-u yozuvchilar, o'qituvchi va talabalarni, barcha ziyoliy ahlini, ona tilimiz fidoyilarini o'zida birlashtiradigan "Ona tili" jamiyatini tuzish zarur;

6) ona tilimizga e'tibor faqat til bayrami munosabati bilan emas, balki doimiy ravishda bo'lishiga erishishni ijtimoiy talab darajasiga ko'tarish muayyan foyda berishga shubha yo'q;

7) ko'chalardagi e'lonlar, bekat nomlari va reklama vositasiga kirmaydigan boshqa turdagi tashqi yozuvlarda qator imloviy xatolar ko'zga tashlanmoqda.

Davlatimiz ramzi, bayrog'i, madhiyasi, chegarasi kabi muqaddas bo'lgan ona tilimizni asrab-avaylashda, uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishda

mahalliy hokimliklar, mutasaddi tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, boshlovchilar, aktyorlar, suxandonlarning mas'uliyatini yanada oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

Zotan, tilning rivojini ta'minlash til egalarining ushbu bebaho boylikka nisbatan hurmat-ehtiromiga bog`liq. Shu ma'noda, o`zbek tili ta'limi mazmunini tubdan isloh qilinib, yangi darsliklar yaratilgani, ularning nashrdan-nashrga to`ldirilgan va takomillashtirilgan holda chop etilayotgani yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

3.2. O`zbek tilshunosligining mustaqillik yillaridagi rivoji

Mustaqillik ma'naviy hayotimizda tub burilish davrini boshlab berdi. Milliy qadriyatlarimizni, ma'naviy an'alarimizni tiklash harakati boshlandi.

Ana shunday sharoitda o`zbek tilining ilmiy-nazariy tadqiqi borasida salmoqli izlanishlar amalga oshirildi.

O`zbek tilshunosligining o`zbek tilidagi har qaysi sath birliklarini o`rganishga qaratilgan fonetika, morfemika, so`z yasalishi, leksikologiya, morfologiya, sintaksis kabi bo`limlari shakllana boshladi.

O`zbek tili morfemika sohasiga oid T.Mirzaqulovning **“O`zbek tili morfemikasining asosiy aspektlari va ularning munosabati”** (1992) monografiyasi va shu mavzuga bag`ishlangan doktorlik dissertatsiyasi (1994), Y. Tojiyevning **“O`zbek tili morfemikasi”** (1992) qo`llanmasi va Azim Hojiyevning shu sohaga doir tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

E. Begmatov o`zining 10 ga yaqin monografik ishida o`zbek ismlari, familiya va ota ismlar, laqab va taxallus kabi birliklar bilan bogliq o`zbek tili antroponimikasining dolzarb masalalarini atroflicha tadqiq etdi.¹

E.Begmatovning **“O`zbek tili antroponimikasi”** (Тошкент: ФАН, 2013. – 264 б.) nomli monografiyasi nashr etildi. Unda o`zbek tili onomastikasining, xususan, antroponimikasining asoschisi, yirik va mashhur tadqiqotchisi bo`lgan olimning yarim asrlik sinchkov izlanish va kuzatishlari, shu davr davomida yuzaga kelgan ilmiy-nazariy qarashlari, xulosalari o`z mujassamini topgan.

Monografiya turkiy tillar tadqiqida ham alohida ahamiyatga ega bo`lib, uning **“Turkiy tillar antroponimiyasining o`rganilishi”** nomli bo`limda qozoq, boshqird, ozarbayjon, qirg`iz, tatar antroponimikasiga oid tadqiqotlar tahlil qilingan, ularning yutuqlari va ayrim kamchiliklari ko`rsatilgan.

Xullas, monografiyada o`zbek tilining boy va serqirra merosi – o`zbek ismlarining lisoniy, sotsiolingvistik, etnolingvistik, nominativ-motivatsion xususiyatlari nazariy hamda amaliy yo`nalishda chuqur va mukammal tadqiq

¹ Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек тили ономастикаси (библиографик кўрсаткич). – Наманган, 2008.

etilgan. Monografiya o'zbek antroponimikasining yutuqlari, muammo va vazifalarini o'zida umumlashtirgan yirik fundamental tadqiqotdir.

O'zbek leksikografiyasining XX asrdagi rivojiga A. Zohiriy, A. Qodiriy, Y.D. Polivanov, A.K. Borokov, K.K. Yudaxin, V.V. Reshetov, S. Ibrohimov, O. Usmonov, Z. Ma'rufov, S. Akobirov, R. Abdurahmonov, Sh. Rahmatullayev, N. Mamatov, A. Hojiyev, T. Aliqulov, G.N. Mixaylov, S.S. Kim va boshqalar munosib hissa qo'shdilar.

O'zbek tili leksikografiyasi taraqqiyotida A.Hojiyevning **“Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati”** (2002), E. Begmatovning **“O'zbek ismlari ma'nosi”** (14600 ism izohi, 1998, 2016) kabi lingivistik lug'atlari alohida o'rin tutadi.

Yozuv tizimi isloh qilindi – jahondagi rivojlangan davlatlarning 30 foizi keng foydalanayotgan lotin alifosiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda,

Mustaqillik yillarida o'zbek tili leksikografiyasi sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Krill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvida 12 jildli **“O'zbekiston milliy entsiklopediyasi”** (Toshkent, 2000-2006), yangi 5 jildli 80000 so'zlikdan iborat **“O'zbek tilining izohli lug'ati”** (Toshkent: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008), ilk bor Shavkat Rahmatullaev tomonidan **“O'zbek tilining etimologik lug'ati”** (Toshkent: Universitet, 2000) kabi o'nlab ko'ptilli va terminologik lug'atlar yaratildi.

O'zbek leksikografiyasining so'ngi yutuqlaridan yana biri T. Nafasov, V. Nafasovalarning **“O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlari o'quv izohli lug'ati”** (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007), **“O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati”** (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007), X. Norxo'jaevaning **“O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati”** (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009), B. Mengliev, O. Boymatova, M. Xudoyberdievalarning **“O'zbek tili iboralari o'quv lug'ati”** (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009), B. Mengliev, B. Bahriddinovalarning **“O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati”** (Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009) kabi o'quv lug'atlari ham yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustida **“O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari”** tasdiqlandi. Hozirga qadar lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga doir yirik imlo lug'atiga ehtiyoj bor edi. Bu vazifa mutaxassislar tomonidan uddalandi. Filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida filologiya fanlari doktori, professor E.Begmatov va filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim A.Madvaliev tomonidan tuzilgan yangi **“O'zbek tilining imlo lug'ati”** (Toshkent: Akadem-nashr, 2013) krill va lotin yozuvlarida alohida-alohida kitob holida nashr etildi. Yangi imlo lug'atlari so'zligining boyligi; imlosi qiyin va munozarali bo'lgan, hozirga qadar turli sabablar bilan imlo lug'atlariga kiritilmay kelinayotgan so'zlarni ham qamrab olganligi; nashr etilgan va etilayotgan boshqa izohli, entsikolpedik, terminologik lug'atlarning ijobiy imloviy tajribalarini hisobga olinganligi; keyingi o'ttiz yil davomida o'zbek tili imlosi amaliyotida yuz bergan, ko'pchilik tomonidan ma'qul deb topillayotgan ijobiy imloviy o'zgarishlarga e'tibor berilganligi; mustaqillik davrida o'zbek tiliga kirib kelgan yangi so'z va terminlar yozilish shaklini ilmiy-imloviy baholangani bilan ahamiyatga molikdir. Ana shu har birida 85000 dan ortiq so'z va so'zshaklning imlosi berilgan o'zbek tilining katta hajmdagi imlo lug'atini doimo talabalar ish stolida turadigan asosiy adabiyotlardan biriga aylantirish kerak.

Mustaqillik yillarida o'zbek tilining mukammal rasmiy-idoraviy uslubi shakllandi.¹ O'zbek tili ish yuritish tizimini tartibga solish, bixillashtirish va kamchilik hamda xatoliklarni bartaraf etish maqsadida N. Mahmudov, M. Aminov, N. Mahkamovlar tomonidan **“O'zbek tilida ish yuritish”** nomli qo'llanma yaratildi va u 1990-, 2006-, 2010-yillarda qayta-qayta nashr etildi. Unda o'nlab ish qog'ozlarining namunaviy shakllari keltirilgan, biroq barcha muassasa va tashkilotlarda ish qog'ozlari talablar darajasida rasmiylashtirilmoqda deb bo'lmaydi. Ulardagi imloviy va ishoraviy xatolarni, uslubiy g'alizliklarni bartaraf etish asosiy va kechiktirib bo'lmaydigan yumushlardan biridir. Ish yuritishga mutasaddi xodimlar o'zbek tili rasmiy-idoraviy uslubi qonun-qoidalarini

¹ Қаранг. Маҳмудов Н., Аминов М., Маҳкамов Н. Ўзбек тилида иш юритиш. – Тошкент, 2010.

yuqoridagi manba-lardan chuqur o`rganishlari va amaliyotda unga qa'tiy rioya qilishlari lozim.

O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonuni va hozirgi tezkor zamon talablari asosida o`zbek tilining milliy rasmiy-idoraviy uslubi shakllandi va amaliyotga joriy etildi, *spravka, raport, protokol, xarakteristika* kabi devonxona terminlari o`rniga *ma'lumotnoma, bidirishnoma, bayonnoma, ishonchnoma, tavsifnoma* singari yangi terminlar iste'molga kirdi hamda hozirda faol qo`llanmoqda.

Mustaqillik yillarida O. Bozorov, J. Eltazarov, Sh. Shahobiddinovalarning ilmiy izlanishlari, A. Nurmonov rahbarligida **“O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya”** (2001) asarlarining yaratilishiga asos bo`ldi.

Mustaqillik yillarida mualliflar guruhi tomonidan yozilgan **“O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi”** (1992), **“O`zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis”** (1995), **“O`zbek tilining struktural sintaksisi”** (2003), N. Mahmudov va R. Sayfullayevalarning ergash gapli qo`shma gaplar va umuman qo`shma gaplarga doir yangicha qarashlari o`zbek tili sintaksisini yangi pog`onaga olib chiqdi.

O`tgan chorak asr o`zbek tili takomilida yangi bir davr – yuksalish va taraqqiyot davri bo`ldi. O`zbek tilining qadri tiklandi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotda mavqei tiklandi va qo`llanish doirasi kengaydi. Uning ilmiy-nazariy tadqiqi borasida salmoqli izlanishlar amalga oshirildi, o`zbek tilshunosligining yangi sohalari yuzaga keldi.

O`zbek tilshunosligi taraqqiyotida Nizomiddin Mahmudov ilmiy faoliyati ham alohida sahifani tashkil etadi. Olimning **“O`zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya”** (1984) monografiyasi, **“O`qituvchi nutqi madaniyati”** (2007) darsligi o`zbek tilshunosligi rivojiga munosib hissa bo`lib qo`shildi.

Mustaqillik sharoitida o`zbek tilining qo`llanilish doirasi g`oyat kengaydi. N. Mahmudovning ijtimoiy munosabatlarda davlat tili imkoniyatlarining oshib borayotganligini ochib beruvchi **“Til va jamiyat”, “Til”, “So`zimiz va o`zimiz”,**

“Ma’rifat manzillari”, “Tilimizning tilla sandig’i” kabi o`zbek tilshunosligida lingvo-publitsistika sohasiga tamal toshini qo`ydi hamda o`zbek sotsiolingvistikasini yangi pog`onaga ko`tardi.

Mustaqillik tufayli lingvistik jurnalistika deb nomlash mumkin bo`lgan alohida yo`nalish vujudga keldi va bu yo`nalishga prof. N.Mahmudov asos soldi. Shuningdek, A.Rustamovning **“So`z xususida so`z”**, A.Abduazizovning **“Tillar olamiga sayohat”**, S. Mo`minovning **“Salomlashish san’ati”** singari risolalari bu yo`nalishga munosib hissa bo`lib qo`shildi.¹

So`nggi yillarda o`zbek tilshunosligida qardosh turkiy tillarga oid bir necha, jumladan, Nizomiddin Mahmud, Ertug`rul Yamanning **“Turkcha-o`zbekcha, o`zbekcha-turkcha lug`at”** (Toshkent: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993), I.Yo`ldoshev, T. O`zturkning **“O`zbek va turk maqollari, iboralari”** (Toshkent, 1998), Berdaq Yusufning **“Turkcha-o`zbekcha va o`zbekcha-turkcha lug`at”** (Toshkent: O`zbekiston, 1993), I. Yo`ldoshev, Ye. Abduvalitov, M. Yo`ldoshevlarning **“O`zbekcha-qozoqcha qisqacha lug`at”** (Toshkent, 2003) lari nashr etildi.

Berdag Yusuf turk olimlari bilan hamkorlikda **“Turkiy tillarning qiyosiy lug`ati”** (Anqara, 1992), **“Turkcha-o`zbekcha so`zlashgich”** (Anqara, 1992) ni tuzdi.

So`nggi yillarda o`zbek tilshunosligida ham oltoyshunoslikka oid tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Sh.R.Usmonova oltoy tillaridagi maishiy leksikaga doir doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va **“Oltoy tillarida mushtarak maishiy leksika”** (Toshkent: Fan, 2010. – 230 b.) nomli monografiyasini yaratdi. Tadqiqotda 180 ta umummushtarak maishiy so`zlarning tarixiy-etimologik, leksik-semantik xususiyatlari, semantik va fonetik strukturasidagi o`zgarishlar tahlil qilingan.

Ta’kidlamoq joizki, tilning muayyan bir vazifasiga asoslangan holda uning yaxlit mohiyatini belgilab bo`lmasligi tabiiy, chunki til ko`p vazifali hodisadir. Ammo dunyo ilmiy tilshunosligida ham ana shunday bir yoqlama yo`ldan ham

¹ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 222.

yurildi, ya'ni "system-struktur tilshunoslik" nomini olgan va anchayin keng tarqalgan paradigma tilning aynan aloqa vositasi bo'lish – kommunikativ vazifasigagina suyanish asosida yuzaga keldi. Aslida kommunikativ vazifa bilan bir qatorda "Til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi... Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhatasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, eksperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas".¹

Sistem-struktur tilshunoslikda til immanent hodisa sifatida egasidan, so'zlovchidan ajratilib o'rganildi, uning ko'pdan-ko'p va xilma-xil vazifalari e'tibordan soqit qilindi. Til chinakam bemisl va muhtasham hodisa sifatida, sohibi mutlaqo aniq fenomen sifatida antroposentrik tilshunoslikda tadqiq obyektiga aylandi. Tilga antroposentrik yondashuv garchi XX asr oxiri – XXI asr boshida yangidan paydo bo'lgan esa-da, uning ildizlari nemis olimi V.Fon Gumboldtning mashhur g'oyalariga borib taqaladi. Uning "Til xalqlar ruhining huddi zohiriy namoyon bo'lishidir: xalqning tili uning ruhidir va xalqning tili uning ruhidir va xalqning ruhi uning tilidir, bulardan-da bir-biriga aynan mos boshqa biror narsani tasavvur qilib bo'lmaydi";

"Tillarning xilma-xilligi tovushlar va belgilardagi farqlar tufayligina emas, balki dunyoni ko'rishning o'zidagi farqlar tufayli hamdir"; "Turli tillar millatlar uchun ularning orginal tafakkuri va tasavvuri organlari ekanligini umume'tirof etilgan deb hisoblash mumkin"; "Tafakkur umuman tilga shunchaki bog'liqqina emas, u muayyan darajada har bir alohida til bilan shartlangan hamdir"; "Xarakter yaratish uchun eng qulay vosita tildir"; butun milliy xarakter faqat tilda muhrlangan; "Millatning xarakterini axloq, odat, xatti-harakatidan ko'ra, tiliga

¹ Махмудов Н. Маърифат маняиллари. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 44.

qarab osonlik bilan bilish mumkin”¹ fikrlarida allomaning, ta’bir joiz bo’lsa, lingvoantropologik falsafasi o’zining ochiq ifodasini topgan.

Tilning teran antroposentrik mavzu mohiyati muhtaram Yurtboshimiz tomonidan mana bunday ta’riflangan: “...O’zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o’rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog’liqlik til norqali namoyon bo’ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”².

Ko’rinadiki, antroposentrizm tilning bevosita asosiga daxldor hodisadir. Rus tilshunosi T.B.Radbil antroposentrizm tilning fundamental, bazaviy xususiyati ekanligini atroflicha yoritib ekan, Y.S.Stepanovning “til inson andazasida yaratilgan va bu o’lcham tilning tuzilishining o’zida muhrlangan, shunga muvofiq til o’rganilmog’i ham kerak”, degan gaplarini keltiradi³. Tildagi sonsiz-sanoqsiz metaforalarni esga olgandayoq inson tashqi dunyoni o’z o’lchovi, o’z andazasi bilan idrok tishini osonlik bilan tasavvur qilmaslik mumkin emas: *daraxtlar ko’z yosh to’kdi, mezonlar kezar, asablar tuproqqa cho’kkan edi tiz, ojiz jasorat, saraton mudraydi, hayratdan lol qotgan oftob, shu’lalar o’ynaydi, birovdan xijolat bo’lgan tol, yellar ham uyg’ondi ishqalab kaftini, maysa silkitadi bosh, hovliqma jilg’alar chopar, azaliy hukmini o’qidi hayot, bahor kelayotir, ivirsir bahor, gul o’qib turar bayt, maysa uyg’onar, yel kezar, uchqur zamon, nomard tabiat, uyg’onguvchi bog’lar, quyosh chekar oh, shamollar o’ynaydi, to’lqinlar qutursin, dono tabiat, qahqaha uradi qadim bu hayot* (A.Oripov). Tashqi olamdagi sifat-xususiyat, harakat-hoлатlarni inson “o’z tanasidan o’tkazib”, o’ziga xos nigoh tarzidan kelib chiqib, go’yo o’ziga nisbatlab baholaydi va nomlaydi, mazkur metaforalarning asosida inson turganligi ko’rinib turibdiki, ularning mohiyat-mantig’ini insondan tamoman ajratib izohlash g’oyatda mushkul ekanligini ta’kidlash lozim.

Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda tilni tadqiq qilishda va tushuntirishda inson fenomini asosiy o’rinda turishi, til esa inson

¹ Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 68, 167, 303, 317, 319, 324.

² Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 83.

³ Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета. – М.: Флинта: Наука, 2009. – С. 89.

shaxsini, demakki, millat, xalq tushunchalarini tarkib toptiruvchi bosh unsure deb qaralishi zarur. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi”, degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganiday, inson aqlini, insonning o’ziday, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo’lmaydi. U o’rinli ko’rsatib o’tganidek, keyingi o’n yilliklarda hozirgi tilshunoslikda mazkur paradigma doirasida shakllangan kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya (lisoniy madaniyatshunoslik) yo’nalishlari tildagi madaniy omil va insondagi lisoniy omilga qaratilgan bo’lishi lozim. “Lingvokulturologiya tilni madaniyat hodisasi sifatida o’rganadi. Bu dunyoni milliy til mentallikning ifodachisi sifatida ishtirok etadi”.¹

Bugun lingvokulturologiya rus va boshqa xorijiy tilshunoslikda alohida lingvistik yo’nalish sifatida shakllandi va rivojlanib bormoqda, o’quv fani sifatida filologik oliy ta’lim tizimiga kirib ham bo’ldi. Mamlakatimizda ham antropolingvistik, xususan, lingvokulturologik yo’nalishdagi tadqiqotlar, asosan, qiyosiy aspektda bo’lsa-da, boshlangan. Lingvokulturologiyani o’quv fani sifatida filologik ta’limga olib kirish yurtimizda yetuk filolog-mutaxassislar tayyorlash ishiga foyda keltirishini ta’kidlamoq joizdir.

Til dunyoni o’ziga xos tarzda ko’rish, bilish, idrok etish va anglash, ayni paytda boshqalarga tayinli ta’sir etishning qudratli quroli ekan, bu qurolga chinakam va sadoqatli sohib bo’lmoq insonlik rutbasi va yagona qavmlik tuyg’usining tirikligi uchun mustahkam zaminidir. Til millatning tafakkur tarzini, taxayyul intizomini tayin etar ekan, bu tarz va intizomning barqarorligi, demakki, odam bolasining aqliy va ruhiy kamoloti shu tilga muhabbat bilan poydordir. “Milliy ong”, “milliy tafakkur”, “milliy madaniyat”, milliy ma’naviyat”, “milliy mentalitet”, “milliy xarakter” kabi bugun keng iste’molda bo’lgan juda ko’plab zalvorli istilohlarning mantiqiy mag’zini, tabiiyki, til tashkil etishi haqiqatdir. Ana shularga ko’ra ham til – bemsil ne’mat, muhtasham sinoat, mustahkam xilqat.

¹ Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 8.

Bugun o'zbek tili o'ttiz bir millionli O'zbekistonning ardoqli tilidir. Chorak asrdirki, bu til mustaqil mamlakatning davlat tili sifatida, millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarni birlashtirib, jipslashtirib keladi. Go'zal yurtimizning buyuk kelajagini barpo etmoq mas'uliyatini yelkaga olgan barcha vatandoshlarimiz konstitutsiyamiz, bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz kabi mustaqil davlatimizning muqaddas timsollaridan biriga aylangan o'zbek tiliga ehtirom ko'rsatadilar. Yurtboshimiz rahnamoligida shakllangan odil va xolis til siyosati bois ko'p millatli mamlakatimizda barcha tillarning rivoji va o'rganilishi uchun tegishli sharoit yaratilgan, bugungi kunda maktablarda ta'lim yeti tilda olib borilmoqda, bir qator tillarda ommaviy axborot vositalarining faoliyati yo'lga qo'yilgan. Turli millat vakillari tomonidan milliy ma'naviyatning asos ustuni sifatida ona tili va ayni paytda muqaddas timsol sifatida davlat tilini o'rganish yurtimizdagi adolatli til siyosatining namoyonidir.¹

¹ Махмудов Н. Тил – бемисл ва муҳташам синоат // Тил ва адабиёт та'лими, 2014. - № 10. – В. 3-5.

3-bob bo'yicha qisqa xulosalar

1. O'zbek tilining davlat tili darajasiga ko'tarilishi xalqimizning o'tmishi, buguni va kelajak taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Tilimizning boyligi, benazirligi, chuqur, tahliliy mushohada qilish imkoniyatlari kengligi uning jahon tillari orasida nufuzi yuqoriligidan dalolatdir.

2. O'zbekistonimizda istiqlol ona tiliga davlat maqomini berish bilan boshlandi. O'zbekiston Respublikasining til siyosati o'zbek tilishunosligining har tomonlama rivoji hamda taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

3. Yurtboshimiz rahnamoligida shakllangan odil va xolis til siyosati bois ko'p millatli mamlakatimizda barcha tillarning rivoji va o'rganilishi uchun tegishli sharoit yaratilgan. Bu doimo rivojlanib, takomillashi bormoqda.

4. O'zbek tili Amerika, Germaniya va Shevetsariyadagi bir necha universitetlarda, Turkiya, Hindiston hamda Afg'onistonda alohida o'rganilmoqda.

Umumiy xulosalar

1. Tillar ijtimoiy mavqeiga ko'ra rasmiy til va davlat tillariga ajratiladi. Davlat tili maqomi rasmiy tildan yuqoriroq mavqega ega. Davlat tili ma'lum davlatning siyosiy-ijtimoiy va madaniy doirasida bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi va shu davlatning ramziy belgisi hisoblanuvchi tildir.

2. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston davlati dastlabki qadamlaridanoq, o'zining til siyosatini respublikaning mustaqilligi, madaniy hamda mafkuraviy platformasining asosiy bo'g'inlaridan biri deb bildi va uni qonun hamda qarorlar bilan mustahkamladi. Natijada, davlat tili maqomi berilgan o'zbek adabiy tili respublikadagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy, iqtisodiy-xo'jalik, ma'rifiy-tarbiyaviy sohalarning barchasida ish yuritish va muloqotning asosiy quroliga aylandi. O'zbek tiliga nisbatan har qanday cheklashlarga, tazyiq o'tkazish va mensimay qarashlarga chek qo'yildi. Bu o'zbek xalqi ozru qilib kelgan, o'zbek tili asrlar davomida erisha olmay kelayotgan ulug' imkoniyat, mislsiz tarixiy yutuq bo'ldi.

3. Milliy til yashasagina milliy davlatchilik, madaniyat rivojlanadi, millat o'zligini anglay oladi. Har qanday davlatda milliy o'zligini anglash qanchalik yuqori bo'lsa, tilga e'tibor shunchalik oshadi.

4. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin u ehtiyoj doirasiga kirdi. Unga nafaqat mutaxassislar, balki keng jamoatchilik amaliy zarurat yuzasidan yondosha boshladi.

5. O'tgan yillar davomida tilimiz taraqqiyoti va ravnaqi borasida salmoqli yutuqlarga erishildi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy doirada o'zbek tilining mavqei ortdi, tiklandi, qo'llanish doirasi kengaydi.

6. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yuz bergan islohotlar, boshqa xalqlar va davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalar natijasida o'zbek tili lug'at tarkibi yuzlab xorijiy o'zlashma so'zlar bilan boyidi va boyib bormoqda. Bu tilning jamiyat bilan bog'liqligining yorqin ifodasidir.

7. Rasmiy uchrashuv va suhbatlar, muzokarlarda tilimizning o`rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Nufuzli xalqaro anjumanlar, sport tadbirlarida o`zbekcha terminlar va so`zlar yangramoqda. Chet ellarda o`zbek tilida kitoblar, gazeta va jurnallar nashr etilmoqda, o`zbek tilini o`rganuvchilar, unga qiziquvchilar ortib bormoqda. Internet tarmog`ida o`zbek tilidagi saytlarning tobora ko`payib borayotgani, ulardan dunyoning turli nuqtalarida millionlab odamlar keng foydalanayotgani tilimizning xalqaro miqyosidagi mavqei yuksalib borayotganidan dalolatdir.

8. O`zbekiston Respublikasi til siyosatida mamlakatimiz hududida yashovchi millat va elatlarning tillariga hurmat bilan munosabatda bo`linganligi, ularni rivojlanishi uchun barcha shart-sharoit yaratilganligi eng ijobiy jihatlardan biridir.

9. O`zbekiston Respublikasi til siyosatining uzviy qismlaridan bo`lgan istiqlool davri toponimik siyosati joy nomlarining milliylashuvi va me`yorlashuviga asos bo`ldi, miqdoran boyishiga hamda nomlarning tarixiy shakl va variantlarini iste`molga qaytishiga xizmat qildi.

10. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuvini ta`minlash maqsadida chet tillarni, xususan, ingliz tilini o`qitishning kompleks tizimi yaratilib, amalda keng joriy etilayotgani ham til siyosatining ustuvorligidan dalolatdir.

11. Jamiyatning rivojlanishini ta`minlashda, davlatimizning mustaqilligini mustahkamlashda davlat tilining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy ahamiyati ulkan. Uning asosida barkamollik, ma`naviyat, tafakkur, qolaversa, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik tarkib topadi.

12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to`g`risida”gi Farmonini kelgusida ona tilimiz va adabiyotimiz – o`zbek tili va adabiyotining taraqqiyotida yana bir yangi yuksalish davrini boshlab berdi. O`zbek tilining dunyo lisoniy olamida munosib o`rin olishiga asos bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. –56 б.
2. Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давоми – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Ишонч, 2010, 8 декабрь.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 19 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010, 3 сентябрь, 1-бет.
4. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тарққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади // Халқ сўзи, 2011 йил. 22 январь.
5. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
6. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 173 б.
7. Каримов И. А. Адолатли жамият сари. – Тошкент, 1998.
8. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
9. Каримов И. А. Бош мақсадимиз – кенг кўламли ислохотлар ва модернизация йўлини қатъият билан давом эттириш Ўзбекистон. Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 2013. 19.01. – Б. 2.

10. Тарихдан сабоқ олиб, замон билан ҳамқадам бўлиб яшаш – бугунги ҳаётнинг ўткир талаби. Президент Ислом Каримов интервьюсидан келиб чиқадиган хулосалар// Халқ сўзи, 2012, 15 май.

11. Ўзбекистон Совет социалистик Республикасининг қонуни Ўзбекистон ССРнинг Давлат тили ҳақида (Ўн биринчи чақириқ Ўзбекистон ССР Олий Советининг ўн биринчи сессиясида 1989 йил 21 октябрда қабул қилинган) – Тошкент: Ўзбекистон, 1989. – 30 б.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида // Қишлоқ ҳаёти, 2016, 14 май, 1-2-бетлар.

II. Ilmiy adabiyotlar

13. Абдумажидов Ғ. “Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида”ги Қонунига шарҳлар. – Тошкент: Адолат, 1999. – 64 б.

14. Асқаров З. Ўзбек миллий давлатчилиги ва баъзи ҳуқуқий – назарий масалалари хусусида // Фалсафа ва ҳуқуқ № 3. 2006.- Б. 70.

15. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.

16. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек тили ономастикаси (библиогафик кўрсаткич). – Наманган, 2008.

17. Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984.

18. “Давлат тили ҳақида”ги қонун амалиётда // Til va adabiyot ta’limi, 1999. – № 5-6. – В. 7.

19. Еникеев Р. Тил ҳақидаги қонунлқр тарихига оид // Til va adabiyot ta’limi, 1997. – № 2. – В. 88-90.

20. Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Тошкент: 2008.

21. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 8.

22. Маҳмудов Н. Давлат тили ва умуминсоний қадриятлар // Til va adabiyot ta’limi, 1999. – № 5-6. – В. 20-30.

23. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999.

24. Маҳмудов Н. Тил . – Тошкент: Ёзувчи , 1998.
25. Маҳмудов Н. Тил – бемисл ва мухташам синоат // *Til va adabiyot ta'limi*, 2014. – № 10. – В. 3-5.
26. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2012.
27. Маҳмудов Н. Ўзбекистонда шаклланган тил сиёсатининг моҳияти // *FarDU. Ilmiy xabarlar* – Научный вестник. ФерГУ, 2015. – № 3. – Б. 27-31.
28. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. –Тошкент, 2009.
29. Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 2010. – №5.
30. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
31. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – I, II, III жилдлар.
32. Нурмонов А. Тил – халқ қалби // *Андижоннома*, 1991, 17 ноябрь. – Танланган асарлар. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 3-ж. – Б. 294.
33. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
34. Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета. – М.: Флинта: Наука, 2009. – С. 89.
35. Раҳимов Ғ. Тил ва жамият муносабати социолингвистиканинг асосий предмети сифатида // *Til va adabiyot ta'limi*, 2002. – № 3. – В. 27-28.
36. Саиджонов Й. Таълим ислохотлари жараёнида “Давлат тили ҳақида” ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг ўрни ва аҳамияти // *Til va adabiyot ta'limi*, 1999. – № 5-6. – В. 8-20.
37. Улуқов Н. Ўзбек тили тараққиётида янги давр // *Наманган ҳақиқати*, 2016, 21 май, 1-б.
38. Шоматов. О. Жанубий Осиё тилларига кириш. – Тошкент, 2003 – Б. 10 – 16.

39. Eltazarov J. Mustaqillik yillarida O`zbekistonda amalga oshirilgan til siyosati xususida (1999-2000-yillar) // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Андижон, 2016. – Б. 35-40.

40. Энциклопедический словарь юного филолога. – Москва: Педагогика, 1984. – С. 304 – 305.

41. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2000. – 1 – 12-жилдлар.

42. O`zbek tilining imlo lug`ati // A. Madvaliev, E. Begmatov; muharrir N. Mahmudov. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

43. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – 5 жилдлик.

44. Ўзбек тилининг имло луғати // А. Мадвалиев, Э. Бегматов; муҳаррир Н. Маҳмудов. – Тошкент: Akademnashr, 2013.

45. Қўшоқова Б. Жамият тараққиётида миллий тил ривожининг ўзига хос хусусиятлари // Til va adabiyot ta'limi, 2003. – № 5. – В. 4-6.

46. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.

Internet ma'lumotlari

1. www.ziynet.uz.
2. www.nuu.uz.